

**NAMANGAN DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/27.09.2024.Ped.184.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH ASOSIDA
BIR MARTALIK KENGASH**

CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

AXMADJANOV DONIYOR BAXTIYOR O‘G‘LI

**SHARQ MUTAFAKKIRLARINING IJTIMOIIY-FALSAFIY QARASHLARI
ASOSIDA BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARNING MA‘NAVIY-AXLOQIY
FAZILATLARINI RIVOJLANTIRISHNING METODIK ASOSLARI
(TARIX FANLARI MISOLIDA)**

13.00.02 – Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (tarix)

**PEDAGOGIKA fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Namangan – 2025

Pedagogika fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi
Оглавление автореферата диссертации доктора педагогических наук (DSc)

Contents of dissertation abstract of doctor of pedagogical sciences (DSc)

Axmadjanov Doniyor Baxtiyor o‘g‘li

Sharq mutafakkirlarining ijtimoiy-falsafiy qarashlari asosida bo‘lajak o‘qituvchilarning ma’naviy-axloqiy fazilatlarini rivojlantirishning metodik asoslari (tarix fanlari misolida)3

Ахмаджанов Дониёр Бахтиёр угли

Методические основы развития духовно-нравственных качеств будущих учителей на основе социально-философских взглядов восточных мыслителей (на примере исторических наук)33

Akhmadjanov Doniyor Bakhtiyor ugli

Methodological Foundations for Developing the Spiritual and Moral Qualities of Future Teachers Based on the Socio-Philosophical Views of Eastern Thinkers (as the Example of History Subjects)69

E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati

Список опубликованных работ

List of published works75

**NAMANGAN DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/27.09.2024.Ped.184.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH ASOSIDA
BIR MARTALIK KENGASH**

CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

AXMADJANOV DONIYOR BAXTIYOR O‘G‘LI

**SHARQ MUTAFAKKIRLARINING IJTIMOYIY-FALSAFIY QARASHLARI
ASOSIDA BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARNING MA’NAVIY-AXLOQIY
FAZILATLARINI RIVOJLANTIRISHNING METODIK ASOSLARI
(TARIX FANLARI MISOLIDA)**

13.00.02 – Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (tarix)

**PEDAGOGIKA fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Namangan – 2025

Fan doktori (DSc) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2025.1.DSc/Ped1054 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya Chirchiq davlat pedagogika universitetida bajarilgan.
Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.namspi.uz) va “ZiyoNet” Axborot-ta’lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy maslahatchi:

Muxamedov Gafurdjan Israilovich
kimyo fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Qurbonov Jasurbek Akmaljonovich
pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent

Yarmatov Rahim Bahromovich
pedagogika fanlari doktori, professor

Yermetov Avaz Abdullayevich
tarix fanlari doktori (DSc), professor

Yetakchi tashkilot:

Shahrisabz davlat pedagogika instituti

Dissertatsiya himoyasi Namangan davlat pedagogika instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.03/27.09.2024.Ped.184.01 raqamli Ilmiy kengash asosidagi bir martalik ilmiy kengashning 2025-yil “___” _____soat _____dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 160107, Namangan shahri, Uychi ko‘chasi 316-uy. Tel.: (998) 69 211-11-69; faks: (998) 69 211-11-69; e-mail: info@namspi.uz.)

Dissertatsiya bilan Namangan davlat pedagogika instituti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (_____raqami bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 160107, Namangan shahri, Uychi ko‘chasi 316-uy. Tel.: (998) 69 211-11-69; faks: (998) 69 211-11-69)

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil “___” _____kuni tarqatildi.

(2025-yil “___” _____dagi _____- raqamli reyestr bayonnomasi).

M.R. Qodirxonov
Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash asosida bir martalik
Kengash raisi, k.f.d. (DSc), dotsent

S.X. Mutalov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash asosida bir
martalik Kengash ilmiy kotibi, p.f.f.d (PhD)

M.A. Asqarova
Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash asosida bir martalik Kengash
qoshidagi ilmiy
seminar raisi, p.f.d. (DSc), dotsent

KIRISH (doktorlik (DSc) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon miqyosida globallashtirish jarayonlari ta'sirida axloqiy muammolarning yuzaga kelishi hamda jamiyatning ma'naviy qadriyatlarga nisbatan munosabatining sezilarli darajada susayishi ta'lim tizimini tubdan qayta ko'rib chiqishni talab etmoqda. Milliy va umuminsoniy qadriyatlarni uyg'unlashtirish asosida ma'naviy-axloqiy tarbiyani rivojlantirish masalasi bugungi kunda nafaqat nazariy, balki amaliy jihatdan ham dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Yaponiya, Janubiy Koreya va Singapur kabi davlatlar tajribasi ta'lim jarayonida axloqiy tarbiyani yanada yuksaltirishga innovatsion yondashuvlarni tatbiq etish samarali natijalar berishini ko'rsatmoqda. Yaponiyada "Oya kotoba" milliy axloq qoidalaridan foydalanish, Janubiy Koreyada esa axloqiy tarbiya uchun virtual platformalardan foydalanish yosh avlodning ma'naviy barkamolligini oshirishga xizmat qilmoqda. Ushbu ilg'or tajribalarni chuqur o'rganish va milliy ta'lim tizimiga moslashtirish orqali o'quvchilarning ma'naviy-axloqiy rivojlanishini ta'minlash hamda pedagogik jarayonni zamonaviy talablarga mos ravishda takomillashtirish imkoniyatlari kengayadi. Shu bois, mazkur tadqiqot axloqiy tarbiyaning nazariy asoslarini tahlil qilish va innovatsion texnologiyalar yordamida ta'lim jarayonida samarali joriy etish mexanizmlarini ishlab chiqishga qaratilganligi bilan dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Dunyoda ta'lim jarayonida axloqiy tarbiyaning o'rni va ahamiyati masalasiga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar keng olib borilmoqda. Zamonaviy pedagogik yondashuvlar axloqiy qadriyatlarni takomillashtirishda raqamli texnologiyalardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirishga xizmat qilmoqda. Janubiy Koreyada virtual muhitda axloqiy dilemmalarni muhokama qilish va simulyatsiyalar yordamida axloqiy qaror qabul qilish ko'nikmalarini rivojlantirish tamoyillari ilgari surilmoqda. Yaponiyada esa milliy qadriyatlarga asoslangan tarbiya tizimi yoshlarda jamoaviy hamkorlik, hurmat va mas'uliyat hissini shakllantirishga yo'naltirilgan. UNESCO tashabbusi bilan ishlab chiqilgan "Global Citizenship Education" dasturi insonparvarlik, adolat va umuminsoniy qadriyatlarga asoslangan ta'lim jarayonini rivojlantirishni nazarda tutadi. AQSH va Yevropa mamlakatlarida axloqiy tarbiyani innovatsion texnologiyalar bilan integratsiya qilish hamda axloqiy tushunchalarni amaliy faoliyat orqali o'zlashtirishga asoslangan yondashuvlar ishlab chiqilmoqda. Ta'lim tizimida milliy va umuminsoniy qadriyatlarni uyg'unlashtirish orqali yoshlarning ma'naviy-axloqiy rivojlanishini yanada oshirish hamda pedagogik jarayonni ilmiy asosda takomillashtirish bugungi kunning dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi.

Mamlakatimizda yoshlarni ma'naviy-axloqiy tarbiyasini rivojlantirish va ularda milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat tuyg'usini yanada oshirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti ta'kidlaganidek, yuksak ma'naviyatli, mustahkam hayotiy pozitsiyaga ega, fidoyi va vatanparvar yoshlarni tarbiyalash ta'lim-tarbiya tizimini yangi bosqichga ko'tarishning muhim

omili hisoblanadi¹. Bu jarayonda ta'lim tizimining milliy qadriyatlarga tayangan holda, axloqiy tarbiyani zamonaviy innovatsion texnologiyalar asosida boyitish zarurati ortib bormoqda. O'zbekistonda milliy g'oya va axloqiy tarbiya negizida ishlab chiqilgan o'quv dasturlari hamda zamonaviy metodlar yosh avlodni ijtimoiy mas'uliyatni anglagan shaxs sifatida shakllantirishga xizmat qilmoqda. Bunda milliy an'analar va xalq pedagogikasi tamoyillarini chuqur o'rganish bilan bir qatorda, ilg'or xalqaro tajribani joriy etish ham muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shu bois, yoshlarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalash muammolari ijtimoiy barqarorlik va jamiyat taraqqiyotini ta'minlash nuqtayi nazaridan dolzarb ilmiy masala sifatida ko'rib chiqilmoqda.

O'zbekiston Respublikasida ta'lim tizimini takomillashtirish va yoshlarning ma'naviy-axloqiy tarbiyasini rivojlantirishga qaratilgan bir qator normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilingan. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-son "O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi, 2020-yil 6-noyabrdagi PF-6108-son "O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi hamda 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi farmonlari, shu bilan birga, 2018-yil 14-avgustdagi PQ-3907-son "Yoshlarni ma'naviy-axloqiy va jismoniy barkamol etib tarbiyalash, ularga ta'lim-tarbiya berish tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori hamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 31-dekabrdagi 1059-son "Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori ushbu sohada ustuvor yo'nalishlarni belgilab bergan. Mazkur me'yoriy-huquqiy hujjatlarda nazarda tutilgan vazifalarni amalga oshirish doirasida olib borilayotgan tadqiqotlar yoshlarning ma'naviy-axloqiy tarbiyasini takomillashtirishga xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda, innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" ustuvor yo'nalishi doirasida bajarilgan.

Dissertatsiya mavzusi bo'yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi.² Bo'lajak pedagog kadrlarning ma'naviy-axloqiy fazilatlarini shakllantirish va rivojlantirish

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori. "Yoshlarni ma'naviy-axloqiy va jismoniy barkamol etib tarbiyalash, ularga ta'lim-tarbiya berish tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish chora-tadbirlari to'g'risida". Toshkent, 2018 yil 14 avgust, PQ-3907-son //qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 15.08.2018 y., 07/18/3907/1706-son

² Dissertatsiya mavzusi bo'yicha xalqaro ilmiy tadqiqotlar sharhi: Gasimova A.Y. The Importance of Moral Values Education in Teacher Training // Logos Verlag. 2023. DOI: 10.36074/logos-31.03.2023.43. URL: https://www.researchgate.net/publication/370051570_THE_IMPORTANCE_OF_MORAL_VALUES_EDUCATION_IN_TEACHER_TRAINING; Tan C. Confucian Self-Cultivation and the Paradox of Moral Education // Moral Education and the Ethics of Self-Cultivation: Chinese and Western Perspectives. Springer, 2021. URL: https://www.researchgate.net/publication/353594491_Confucian_Self-

zamonaviy ilm-fan doirasida keng tadqiq etilayotgan muhim yo'nalishlardan biridir. Xususan, Seoul National University (Janubiy Koreya) olimlari axloqiy tarbiyani rivojlantirishda innovatsion pedagogik usullar va raqamli texnologiyalarni qo'llash masalalariga alohida e'tibor qaratib, ushbu yondashuvlarning ta'lim samaradorligiga ta'sirini o'rganmoqdalar.

Buyuk Britaniyaning University of Nottingham oliy ta'lim muassasasi tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda esa axloqiy dilemmalarni o'rganish orqali bo'lajak o'qituvchilarda tahliliy, tanqidiy fikrlash va axloqiy mustaqil qaror qabul qilish kompetensiyalarini rivojlantirish masalalari tahlil qilingan. Shu bilan birga, Strasbourg University (Fransiya) va Uppsala University (Shvetsiya) olimlari ta'lim jarayonida milliy va umuminsoniy qadriyatlarni uyg'unlashtirishning samarali pedagogik modellari va metodik asoslarini ishlab chiqishga yo'naltirilgan tadqiqotlar olib bormoqdalar.

Xalqaro ilmiy tajriba shuni ko'rsatmoqdaki, bo'lajak o'qituvchilarning ma'naviy-axloqiy tarbiyasini takomillashtirish uchun innovatsion yondashuvlarni ishlab chiqish, raqamli texnologiyalarni ta'lim jarayoniga integratsiya qilish hamda axloqiy dilemmalar asosida tanqidiy tafakkurni rivojlantirish dolzarb ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi. Shu sababli, bo'lajak pedagoglarning ma'naviy-axloqiy fazilatlarini takomillashtirishning metodik asoslarini ilmiy jihatdan tadqiq etish va ularni ta'lim jarayoniga joriy etish hozirgi pedagogika fani oldida turgan ustuvor vazifalardan biri hisoblanadi.

Bo'lajak pedagoglarning ma'naviy-axloqiy tarbiyasini takomillashtirish zamonaviy pedagogika va ta'lim metodologiyasining dolzarb yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Xalqaro ilmiy tadqiqotlar ushbu jarayonda innovatsion yondashuvlarni ishlab chiqish hamda axloqiy tarbiyani zamonaviy texnologiyalar bilan uyg'unlashtirish muhimligini ta'kidlamoqda. Xususan, **Association for Educational Communications and Technology – AECT (AQSh)** tomonidan olib borilgan tadqiqotlar yoshlarni axloqiy-etik qarashlarga o'rgatishda ta'lim jarayoniga ijtimoiy mediani integratsiya qilishning samaradorligini ko'rsatmoqda. **University of Helsinki (Finlyandiya)** olimlari tomonidan esa axloqiy tarbiyani qo'llab-quvvatlovchi ta'lim metodikalari ishlab chiqilib, ularni amaliyotga tatbiq etishda talabalarning ijtimoiy va kasbiy mas'uliyatini rivojlantirishga qaratilgan yondashuvlar taklif etilgan. **A.I. Gersen nomidagi davlat pedagogika**

[cultivation and the Paradox of Moral Education](#); Hasanah N.Z., Sutra S.D., Istiqomah, Dewantara M.H., Boulahnane S. The Role of Islamic Education in Teaching Moral Values to Students // Mudarrisa: Jurnal Kajian Pendidikan Islam. 2022. Vol. 14, No. 1. URL: https://www.researchgate.net/publication/361656890_The_Role_of_Islamic_Education_in_Teaching_Moral_Values_to_Students; Ren Z. A Study on the Influence of Confucianism on Modern Chinese Family Education // Proceedings of ISAETE 2020. URL: https://webofproceedings.org/proceedings_series/ESSP/ISAETE%202020/TE1042.pdf; Sinulingga N.N., Usiono, Suyani E., Dalimunthe A.Q. Literature Review on the Nature of Learners in the Philosophy of Islamic Education // World Journal of Islamic Learning and Teaching. 2024. Vol. 1, No. 4. URL: <https://international.aripafi.or.id/index.php/WJILT/article/download/119/139>; Al-Faruqi I., AbuSulayman A.H. Islamization of Knowledge: General Principles and Work Plan. International Institute of Islamic Thought, 1981. URL: [https://en.wikipedia.org/wiki/Islamization_of_Knowledge_\(book\)](https://en.wikipedia.org/wiki/Islamization_of_Knowledge_(book)); Karpouzis K. Artificial Intelligence in Education: Ethical Considerations and Insights from Ancient Greek Philosophy // arXiv preprint. 2024. URL: <https://arxiv.org/abs/2409.15296>.

universiteti (Rossiya Federatsiyasi) tomonidan esa axloqiy-tarbiyaviy jarayonlarni tashkil qilishda tanqidiy fikrlashni shakllantirishga qaratilgan metodologiyalar ishlab chiqilgan bo'lib, ushbu tadqiqot natijalari zamonaviy pedagogika sohasida muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Xorijiy ilmiy izlanishlar shuni ko'rsatmoqdaki, bo'lajak o'qituvchilarning ma'naviy-axloqiy fazilatlarini shakllantirishda milliy an'analarni jahon tajribasi bilan uyg'unlashtirish samarali ta'lim jarayonini tashkil etishning muhim shartlaridan biridir. Shu bois, milliy qadriyatlar bilan umuminsoniy g'oyalarni uzviy integratsiya etish, axloqiy jihatdan mustaqil qarorlar qabul qilish kompetensiyalarini rivojlantirishga yo'naltirilgan pedagogik modellarni ishlab chiqish hamda innovatsion texnologiyalardan samarali foydalanish bugungi pedagogik tadqiqotlarning ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida e'tirof etilmoqda.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Sharq mutafakkirlari tarbiya va uning jamiyat taraqqiyotidagi o'rni haqida muhim ilmiy-nazariy qarashlar ilgari surgan bo'lib, ularning g'oyalari bugungi kunda ham dolzarbligini saqlab qolmoqda. Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Mahmud Qoshg'ariy, Jaloliddin Rumiy, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur kabi allomalar jamiyat madaniy taraqqiyoti, millat ma'naviy kamolotida muhim bo'lgan tarbiyaning hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanligini ta'kidlagan. Shuningdek, Abdulla Avloniy, Mahmudxo'ja Behbudiy, Is'hoqxon Ibrat, Abdurauf Fitrat, Munavvarqori Abdurashidxonov singari ma'rifatparvar ziyolilar yosh avlod tarbiyasini milliy o'ziga xoslik, ma'naviy qadriyatlar va zamonaviy ta'lim talablari bilan uyg'unlashtirish zarurligini asoslab bergan.

Mamlakatimizda tarbiyaning falsafiy, pedagogik va sotsiologik jihatlari bo'yicha qator tadqiqotlar olib borilgan. Xususan, globallashuv sharoitida ma'naviy-axloqiy tarbiyaning shakllanishi, uni yoshlar ongiga singdirish hamda innovatsion texnologiyalar orqali rivojlantirish masalalari o'zbekistonlik olimlar tomonidan o'rganilgan. Jumladan, ta'lim va tarbiyaning ijtimoiy-tarixiy mazmuni va o'zaro bog'liqligi E.Yusupov tomonidan, ularning falsafiy va siyosiy jihatlari esa S.Otamuratov, K.Tulenova, B.To'ychiev, J.Mavlonov, Sh.Paxrutdinov, N.Shermuxeamedova, G.Tulenova, A.S. Achildiyev, Sh.Murodova, A.Tulepov, X.Ochilovlar tomonidan ³; ma'naviy-axloqiy tarbiyaning pedagogik tadqiqi E.G'oziyev, A.Zunnunov, U.Mahkamov, F.Jumanova, J.Ravshanov, M.Quronov, I.Daminov, O.Bozorov, Sh.Akramova, Sh.Mardonov, S.Matchonov,

³ Yusupov E. Inson kamolotining ma'naviy asoslari. – Toshkent: Universitet, 1997.; Otamuratov S. Globallashuv: millatni asrash mas'uliyati – Toshkent: O'zbekiston, 2018; Tulenova K., Tillavoldiyeva M. Milliy tarbiyaning falsafiy masalalari. – Toshkent: Nizomiy nomidagi TDPU 2008; Shermuxeamedova N.A. Ilmiy tadqiqot metodologiyasi. – Toshkent: Innovatsiya-Ziyo, 2021; Tulenova K. Barkamol yosh avlod – istiqloq tayanchi. – Toshkent: Fan va texnologiya 2004; Tulenova K., Tillavoldiyeva M. Milliy tarbiyaning falsafiy masalalari. – Toshkent: Nizomiy nomidagi TDPU 2008; Achildiyev A.S. Milliy g'oya va tarbiya – millatlararo munosabatlarni takomillashtirish omili. – Toshkent, 2004; Murodova Sh. Ijtimoiy tarmoq so'qmoqlari. // Tafakkur, 2013. 4-son, 21-b.; Tulepov A. Internet tahdidlardan himoya. – Toshkent: Movarounnahr, 2015; Ochilov X. Demokratiya niqobidagi tahdid. – Toshkent: Muharir, 2010.

O.Musurmanova, M.Mirqosimova, F.A.Shukurov, F.T.Xalimova, N.M.Egamberdiyeva⁴larning tadqiqotlarida yoritilgan⁴.

Mazkur ilmiy izlanishlar ta'lim jarayonida tarbiyaning ahamiyatini chuqur anglash, uni milliy va umuminsoniy qadriyatlar asosida shakllantirish hamda zamonaviy pedagogik texnologiyalar bilan boyitish zarurligini ko'rsatmoqda. Shu bois yoshlarning ma'naviy-axloqiy tarbiyasini takomillashtirish hamda ta'lim jarayonida axloqiy qadriyatlarni singdirish bo'yicha tizimli ilmiy yondashuvlarni ishlab chiqish dolzarb ilmiy-amaliy masalalardan biri hisoblanadi.

Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi (MDH) mamlakatlarida yoshlarning huquqiy ongini rivojlantirish, ma'naviy-axloqiy tarbiyasini takomillashtirish hamda tarbiyaviy jarayonlarni samarali tashkil etish masalalari turli ilmiy tadqiqotlarda keng yoritilgan. Xususan, N.Kudaybergenova, J.Amirkulova, T.Ospanov, J.Omirbekova, J.Kumganbaev, A.J.Jumagulov, A.A.Guseynov, R.X.Tursunov, E.R.Mamedov, L.M.Sadikova, S.P.Ivanov, N.V.Petrova, B.K.Axmedov⁵ singari olimlarning izlanishlarida globallashtirish sharoitida tarbiyaning o'ziga xos jihatlari, yosh avlodning ijtimoiylashuv jarayoniga ta'sir etuvchi omillar va pedagogik yondashuvlar ilmiy asosda tahlil qilingan.

Xalqaro tajribaga nazar tashlasak, A.Y.Gasimova, C.Tan, N.Z.Hasanah, S.D.Sutra, Istiqomah, M.H.Dewantara, S.Boulahnane, Z.Ren, N.N.Sinulingga, Usiono, E.Suyani, A.Q.Dalimunthe, Al-Faruqi I., A.H. AbuSulayman, K.Karpouzis, V.Bahtilla, H.Xu, X.Du, S.Li, A.A.Muhammed-Lawal, S.Hussien⁶

⁴ G'oziyev E. Umumiy psixologiya. – Toshkent: Universitet, 2024.; Zunnunov A. Pedagogika tarixi. – Toshkent: Sharq, 2000.; Mahkamov S.T. Tarix ta'limida kurslararo uzviylikni ta'minlashning didaktik asoslari // ped. fanlari nomz. diss. – Toshkent, 2005. –B. 180.; Mahkamov U., Jumanova F., Ravshanov J. Bo'lajak o'qituvchilarni tarbiyaviy ishlarni tashkil etish va boshqarishga tayyorlash // Academic research in educational sciences, 2020. №3. 815-830.; Quronov M. O'zbekiston umumiy o'rta ta'lim maktablarida milliy tarbiyaning ilmiy-pedagogik asoslari: Ped. fan dokt. Dis. – Toshkent, 1998. – 316 b. 60.; Mardonov Sh.Q. Yangi ta'limiy qadriyatlar asosida pedagog kadrlarni tayyorlash va malakasini oshirish. – Toshkent: Fan, 2006.; Matchonov S. Adabiy ta'lim tizimini texnologiyalashtirish va badiiy-estetik tafakkur muammolari//Nizomiy nomidagi TDPU Ilmiy axborotnomasi. 2020, №1. B.49-53.; Musurmonova O. Ma'naviy qadriyatlar va yoshlar tarbiyasi. – Toshkent: O'qituvchi, 1996. –B.192.; Ф.Шукуров, Ф.Халимова, М.Миркосимова. Сравнительная характеристика адекватности самооценки, тревожности и типов ВНД у студентов. //Агаджаньевские чтения, 2020. – С.254-256.

⁵ Кудайбергенова Н., Амиркулова Ж., Оспанов Т., Омирбекова Ж., Кумганбаев Ж. Сравнительный философский анализ рациональной этики И. Канта и духовно-нравственных ценностей конфуцианства // *European Journal for Philosophy of Religion*. 2022. – Toshkent, 14, № 4. С. 149–170.; Жумагулов А.Ж. Восточная философия и ее влияние на формирование нравственных ценностей в образовании // *Философия образования*. 2021. № 3. С. 45–52.; Гусейнов А.А. Этика и культура: Восточные традиции в современном образовании // *Вопросы философии*. 2020. № 7. С. 12–19.; Турсунов Р.Х. Роль восточной философии в формировании нравственных основ педагогической деятельности // *Педагогика и психология образования*. 2019. № 5. С. 33–40.; Мамедов Э.Р. Конфуцианская модель нравственного воспитания и ее применение в современной педагогике // *Вестник педагогических наук*. 2018. № 4. С. 27–34.; Садыкова Л.М. Восточные философские традиции и их значение в формировании моральных ценностей у будущих педагогов // *Журнал философских исследований*. 2017. № 2. С. 58–65.; Иванов С.П. Этические аспекты восточной философии в образовательном процессе // *Современное образование*. 2016. № 6. С. 41–47.; Петрова Н.В. Духовно-нравственные ценности восточной философии и их роль в подготовке педагогических кадров // *Педагогическое образование и наука*. 2015. № 3. С. 50–56.; Ахмедов Б.К. Восточная философия и ее влияние на развитие моральных качеств у студентов педагогических вузов // *Образование и общество*. 2014. № 1. С. 29–35.

⁶ Gasimova A.Y. The Importance of Moral Values Education in Teacher Training // Logos Verlag. 2023. DOI: 10.36074/logos-31.03.2023.43.; Tan C. Confucian Self-Cultivation and the Paradox of Moral Education // *Moral Education and the Ethics of Self-Cultivation: Chinese and Western Perspectives*. Springer, 2021.; Hasanah N.Z., Sutra S.D., Istiqomah, Dewantara M.H., Boulahnane S. The Role of Islamic Education in Teaching Moral Values to

kabi olimlarning ishlarida yoshlarning ma'naviy-axloqiy tarbiyasini takomillashtirish, ijtimoiy mas'uliyat hissini shakllantirish, talabalarning shaxsiy rivojlanishini tashkil etish va boshqarish masalalari tadqiq etilgan. Ushbu tadqiqotlar zamonaviy jamiyatda axloqiy tarbiyaning dolzarb jihatlarini ochib berish bilan birga, uni yangi pedagogik texnologiyalar bilan uyg'unlashtirish zaruratini ham asoslab bermoqda.

Sharq mutafakkirlarining ijtimoiy-falsafiy qarashlari asosida yoshlarning ma'naviy-axloqiy fazilatlarini rivojlantirishga yo'naltirilgan metodik yondashuvlarni takomillashtirish bugungi kunda pedagogika oliy ta'lim muassasalari uchun ustuvor ilmiy-amaliy masalalardan biri hisoblanadi. Shu bois, globallashuv sharoitida ma'naviy-axloqiy tarbiyani rivojlantirishga ta'sir etuvchi omillarni atroflicha tahlil qilish va ta'lim jarayoniga innovatsion pedagogik texnologiyalarni joriy etish ushbu tadqiqot ishining asosiy yo'nalishlarini belgilab beradi.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Chirchiq davlat pedagogika universitetining "Pedagogik ta'lim innovatsion klasterining ilmiy-nazariy asoslari va amaliy mexanizmlari" (2018-2023-yy.) mavzusidagi strategik ilmiy tadqiqot ishlari rejasi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi Sharq mutafakkirlarining ijtimoiy-falsafiy qarashlari asosida pedagogika oliy ta'lim muassasalari talabalarining ma'naviy-axloqiy fazilatlarini rivojlantirishning metodik asoslarini takomillashtirishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

bo'lajak o'qituvchilarning ma'naviy-axloqiy fazilatlarini rivojlantirish muammosining pedagogik - psixologik xususiyatlarini aniqlashtirish;

bo'lajak o'qituvchilarning ma'naviy-axloqiy fazilatlarini rivojlantirishda Sharq mutafakkirlarining ijtimoiy-falsafiy qarashlaridan foydalanishning konseptual asoslarini takomillashtirish;

bo'lajak tarix o'qituvchisining ma'naviy-axloqiy fazilatlarini rivojlantirishning didaktik tizimi va metodik ta'minotini takomillashtirish;

Sharq mutafakkirlarining ijtimoiy-falsafiy qarashlari asosida bo'lajak o'qituvchilarning ma'naviy-axloqiy fazilatlarini rivojlantirishning pedagogik modelini takomillashtirish;

Students // Mudarrisa: Jurnal Kajian Pendidikan Islam. 2022. Vol. 14, No. 1.; Ren Z. A Study on the Influence of Confucianism on Modern Chinese Family Education // Proceedings of ISAETE 2020.; Sinulingga N.N., Usiono, Suyani E., Dalimunthe A.Q. Literature Review on the Nature of Learners in the Philosophy of Islamic Education // World Journal of Islamic Learning and Teaching. 2024. Vol. 1, No. 4.; Al-Faruqi I., AbuSulayman A.H. Islamization of Knowledge: General Principles and Work Plan. International Institute of Islamic Thought, 1981.; Karpouzis K. Artificial Intelligence in Education: Ethical Considerations and Insights from Ancient Greek Philosophy // arXiv preprint. 2024.; Bahtilla M., Xu H. The Influence of Confucius's Educational Thoughts on China's Educational System // Open Access Library Journal. 2021. Vol. 8, No. 5. DOI: 10.4236/oalib.1107370.; Du X., Li S. The Role of Confucian Virtues in Shaping Educational Philosophy and Practices in Modern Chinese Secondary Schools // Journal of Research in Social Science and Humanities. 2024. Vol. 3, No. 2. DOI: 10.56397/JRSSH.2024.08.10.; Muhammed-Lawal A.A., Hussien S. The Role of Islamic Education Teacher in Moral Education: A Case Study of (IIS) Malaysia // Journal of Education and Practice. 2018. Vol. 9, No. 36.

bo'lajak o'qituvchilarning ma'naviy-axloqiy fazilatlarini rivojlantirishga qaratilgan baholash mezonlarining samaradorligini aniqlash, metodik asoslarni joriy etish hamda taklif va tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqotning obyekti sifatida Sharq mutafakkirlarining ijtimoiy-falsafiy qarashlari asosida bo'lajak tarix o'qituvchilarining ma'naviy-axloqiy fazilatlarini rivojlantirishning metodik asoslarini takomillashtirish jarayoni belgilanib, pedagogik tajriba-sinov ishlariga Namangan davlat pedagogika instituti, Guliston davlat pedagogika instituti, Urganch davlat pedagogika instituti va Chirchiq davlat pedagogika universitetlarining jami 471 nafar talabalari jalb etilgan.

Tadqiqotning predmetini bo'lajak tarix o'qituvchilarida ma'naviy-axloqiy fazilatlarni rivojlantirishning metodik asoslarini takomillashtirishning ta'limiy va pedagogik mazmuni, shakli, texnologiyasi, amaliy mexanizmlari, metod va vositalari tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot jarayonida nazariy (statistik tahlil, qiyosiy tahlil, kompleks yondashuv, tizimli funksional yondashuv), diagnostik (suhbat, so'rovnomalar, kuzatish, tasniflash, intervyu), matematik va pedagogik eksperiment (ma'lumotlarni matematik-statistik tahlil qilish, natijalarni grafik tasvirlash, modellashtirish va boshqalar) kabi usullardan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

bo'lajak o'qituvchilarning ma'naviy-axloqiy fazilatlarini rivojlantirishning pedagogik zarurati Sharq mutafakkirlarining ilmiy merosini ta'lim jarayonida kognitiv tahlil va integrativ tarkibiylikka aksil-mazmunli yondashuv orqali shaxsiy identifikatsiya trayektoriyasiga ko'ra aksiologik-motivatsion integratsiyalash orqali asoslangan;

bo'lajak o'qituvchilarning ma'naviy-axloqiy fazilatlarini rivojlantirishda Sharq mutafakkirlarining ijtimoiy-falsafiy qarashlaridan foydalanishning konseptual asoslari aksiologik yondashuv va kognitiv tahlil asosida talabalarning ma'naviy-axloqiy qiyofasini integrativ tarkibiylikka ko'ra reflektiv-madaniy talqin orqali ochib berish asosida takomillashtirilgan;

Sharq va G'arb pedagogikasida tarbiya masalasining qiyosiy tavsifi ularning mentalitet bilan bog'liq o'ziga xos jihatlarni aksiologik yondashuv asosida tahlil qilish hamda tarbiya tamoyillarining fundamental asoslarini tarbiya usullari va metodlarining samaradorligiga innovatsion tatbiq etish orqali ochib berilgan;

tarix ta'limida zamonaviy o'qituvchi konsepsiyasi ta'lim mazmuniga qo'yilgan zamonaviy talablarni milliy qadriyatlar va umuminsoniy tamoyillarni uyg'unlashtirish, talabalarning ma'naviy-axloqiy qiyofasini shakllantirishda kasbiy mo'ljalning universallik va formativlik tamoyillariga muvofiq didaktik konvergensiya vositasida kompetensiyalarni integrativ shakllantirishni samarali joriy etish asosida ishlab chiqilgan;

Sharq mutafakkirlarining ijtimoiy-falsafiy qarashlari asosida bo'lajak o'qituvchilarning ma'naviy-axloqiy fazilatlarini rivojlantirishning pedagogik modeli tarbiya nazariyasining aksiologik asoslari va ta'lim jarayonida axloqiy dilemmalarni integratsiya qilish orqali talabalarning shaxsiy mas'uliyatini oshirishga metodik yo'naltirish asosida takomillashtirilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari.

bo'lajak tarix o'qituvchilarining ma'naviy-axloqiy fazilatlarini rivojlantirish mezon va ko'rsatkichlari aniq belgilandi hamda ularning kasbiy kompetensiyalari va shaxsiy fazilatlarini shakllantirishga qaratilgan ilmiy-metodik asoslar yaratildi;

Sharq va G'arb pedagogikasida tarbiya jarayonining o'ziga xos xususiyatlari qiyosiy tahlil qilinib, mentalitet, milliy qadriyatlar tizimi va tarbiyaviy yondashuvlarning farqlari va o'xshashliklari umumiyli va xususiyli ilmiy asosda o'rganildi;

bo'lajak tarix o'qituvchilarining ma'naviy-axloqiy fazilatlarini rivojlantirishga yo'naltirilgan amaliy-texnologik tizim takomillashtirilib, unda innovatsion pedagogik metodlar va interfaol ta'lim texnologiyalaridan foydalanish imkoniyatlari kengaytirildi;

tarix ta'limi uchun zamonaviy o'qituvchi konsepsiyasi ishlab chiqilib, unda bo'lajak pedagoglarning ma'naviy-axloqiy qiyofasini shakllantirish va ularning kasbiy mahoratini rivojlantirishga oid metodik tavsiyalar asoslab berildi.

Tadqiqot natijalarining ishonchiligi qo'llanilgan metodologik yondashuvlarning ilmiy asoslanganligi, ishlab chiqilgan pedagogik modelning nazariy va amaliy jihatdan tasdiqlanganligi bilan belgilanadi. Tadqiqot pedagogika fanining turli tarmoqlari bo'yicha mamlakatimiz va xorijdagi yetakchi olimlar, metodist va amaliyotchilarning ilmiy ishlari hamda tajribalariga asoslangan holda olib borildi. Olingan natijalar pedagogik tajriba-sinov ishlari davomida matematik-statistik tahlil vositasida, jumladan, Student-Fisher kriteriyalari, dispersiya tahlili va variatsiya koeffitsiyentlari orqali tasdiqlandi. Shuningdek, ta'lim va tarbiya metodlarining samaradorligi baholanib, tadqiqot maqsad va vazifalarining adekvatligi aniqlangan. Olingan xulosa, taklif va tavsiyalar amaliyotga joriy etilib, natijalar mutasaddi tashkilotlar tomonidan tasdiqlandi hamda xalqaro ilmiy adabiyotlarda mavjud yondashuvlar bilan solishtirildi, bu esa tadqiqotning mazmuni va metodlari ilmiy jihatdan yuqori ishonchlilik darajasiga ega ekanligini ko'rsatdi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalari bo'lajak tarix o'qituvchilarining ma'naviy-axloqiy fazilatlarini rivojlantirishga yo'naltirilgan nazariy, metodik va texnologik asoslarning takomillashtirilganligi bilan ilmiy jihatdan ahamiyatlidir. Sharq mutafakkirlarining ijtimoiy-falsafiy qarashlari asosida o'qituvchilarning ma'naviy-axloqiy tarbiyasini rivojlantirishga oid pedagogik model ishlab chiqilib, uning nazariy tahlili amalga oshirildi. Tadqiqot doirasida taklif qilingan metodologik yondashuvlar, ilmiy gipotezaning ishonchiligi va pedagogik tamoyillar nazariy asoslanganligi ilmiy yangilik sifatida namoyon bo'ladi.

Mazkur tadqiqotning amaliy ahamiyati shundaki, ishlab chiqilgan pedagogik model va uning komponentlari bo'lajak o'qituvchilarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalash jarayonida qo'llash uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Ushbu model milliy qadriyatlar va umuminsoniy tamoyillar uyg'unligini ta'minlash bilan birga, interaktiv metodlar, raqamli texnologiyalar, axloqiy dilemmalar tahlili va shaxsiy namuna kabi zamonaviy pedagogik yondashuvlar orqali o'quv jarayonini sifat

jihatidan boyitish imkonini beradi. Shuningdek, u tanqidiy va tahliliy fikrlash, ijtimoiy javobgarlik va shaxsiy mas'uliyatni his qilishda samarali vosita hisoblanadi. Tadqiqot natijalari pedagogik oliy ta'lim muassasalarining o'quv dasturlarini takomillashtirish, ma'naviy-axloqiy rivojlanishni baholash mezonlarini ishlab chiqish hamda milliy va xalqaro pedagogik tajribalarni integratsiya qilish orqali ta'lim sifatini oshirishda keng qo'llanilishi mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Sharq mutafakkirlarining ijtimoiy-falsafiy qarashlari asosida bo'lajak o'qituvchilarning ma'naviy-axloqiy fazilatlarini rivojlantirishning metodik asoslarini takomillashtirish borasidagi olib borilgan tadqiqot natijalari asosida:

Sharq mutafakkirlarining ilmiy merosini ta'lim jarayonida kognitiv tahlil va integrativ tarkibiylikka aksil-mazmunli yondashuv orqali shaxsiy identifikatsiya trayektoriyasiga ko'ra aksiologik-motivatsion integratsiyalash orqali asoslangan bo'lajak o'qituvchilarning ma'naviy-axloqiy fazilatlarini rivojlantirishning pedagogik zarurati bo'yicha bildirilgan taklif va tavsiyalar "Ilmiy tadqiqot metodologiyasi" nomli darslik mazmuniga singdirilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yil 27-dekabrda 485-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan 108272-raqamli nashr guvohnomasi). Natijada, tarix ta'limi jarayonida milliy va umuminsoniy qadriyatlarni uyg'unlashtirish, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni tatbiq etish hamda tarix o'qituvchilarining kasbiy va shaxsiy fazilatlarini rivojlantirishga xizmat qilgan, talabalarning tarbiyaviy va kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishga erishilgan;

Sharq va G'arb pedagogikasidagi mentalitet bilan bog'liq o'ziga xos jihatlarni aksiologik yondashuv asosida tahlil qilish hamda tarbiya tamoyillarining fundamental asoslarini tarbiya usullari va metodlarining samaradorligiga innovatsion tatbiq etish orqali ochib berish borasidagi taklif va tavsiyalardan "Kasbiy ma'naviyat" darsligi mazmuniga singdirilgan. O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yil 27-dekabrda 485-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan 452471-raqamli nashr guvohnomasi). Natijada, Sharq va G'arb pedagogikasidagi ilg'or jihatlarni integratsiyalash borasida takliflar ishlab chiqilgan;

ta'lim mazmuniga qo'yilgan zamonaviy talablarni milliy qadriyatlar va umuminsoniy tamoyillarni uyg'unlashtirish, talabalarning ma'naviy-axloqiy qiyofasini shakllantirishda kasbiy mo'ljalning universallik va formativlik tamoyillariga muvofiq didaktik konvergensiya vositasida kompetensiyalarni integrativ shakllantirishni samarali joriy etish asosida ishlab chiqilgan tarix ta'limida zamonaviy o'qituvchi konsepsiyasi borasidagi tavsiyalardan Lublin Texnologiya Universitetida bajarilgan PPI/APM/2019/1/00004-raqamli "3D Digital Silk Road" (2020-2022-yy.) mavzusidagi xalqaro amaliy loyihasi doirasida foydalanilgan (Chirchiq davlat pedagogika universitetining 2025-yil 17-fevraldagi 04/548-son ma'lumotnomasi). Natijada, bo'lajak tarix o'qituvchilarining ma'naviy-axloqiy fazilatlarini rivojlantirishning metodik asoslarini ommalashtirish imkoniyatlari yaratilgan;

aksiologik yondashuv va kognitiv tahlil asosida talabalarning ma'naviy-axloqiy qiyofasini integrativ tarkibiylikka ko'ra reflektiv-madaniy talqin orqali ochib berish asosida takomillashtirilgan bo'lajak o'qituvchilarning ma'naviy-axloqiy fazilatlarini rivojlantirishda Sharq mutafakkirlarining ijtimoiy-falsafiy qarashlaridan foydalanishning konseptual asoslari bo'yicha bildirilgan taklif va tavsiyalardan O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi "O'zbekiston-24" ijodiy birlashmasi "O'zbekiston" teleradiokanali tomonidan tayyorlangan "Millat va ma'naviyat", "Ta'lim va taraqqiyot" dasturlarining 2024-yil noyabr va dekabr oylaridagi sonlari ssenariysida foydalanilgan (O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi "O'zbekiston-24" ijodiy birlashmasi davlat muassasasining 2025-yil 26-fevraldagi 05-09-226-son ma'lumotnomasi). Natijada, bo'lajak tarix o'qituvchilarining ma'naviy-axloqiy fazilatlarini rivojlantirishga yo'naltirilgan amaliy-texnologik tizim ommalashtirishga erishilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 5 ta, shu jumladan, 2 ta xalqaro va 3 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mazmunini yorituvchi jami 27 ta ilmiy ish, jumladan, 1 ta monografiya O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi doktorlik dissertatsiyalarining asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya qilingan ilmiy nashrlarda 15 ta maqola, jumladan, 11 tasi respublika va 4 tasi xorijiy jurnallarda nashr qilingan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, to'rt bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Ishning umumiy hajmi 218 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning "**Kirish**" qismida tadqiqot ishining dolzarbligi asoslab berilgan, maqsadi, obykti, predmeti va vazifalari belgilangan, tadqiqot ishini tashkil etishning nazariy va metodologik asoslari ta'riflangan, ilmiy yangiligi, nazariy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, olingan natijalarning ishonchliligi asoslangan, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi "**Sharq mutafakkirlarining ijtimoiy-falsafiy qarashlari va ma'naviy-axloqiy ta'limotlarining nazariy va metodologik asoslari**" deb nomlanadi va unda mutafakkirlarning ijtimoiy-falsafiy qarashlari va ularning ilmiy merosining zamonaviy ta'lim jarayonida qo'llanilish imkoniyatlari tahlil qilinadi. Sharq falsafasi uzoq tarixiy taraqqiyot yo'lini bosib o'tgan bo'lib, unda inson ma'naviyati, axloqiy qadriyatlar, jamiyat taraqqiyoti hamda ijtimoiy adolat tushunchalari markaziy o'rin egallaydi. Sharq mutafakkirlarining axloqiy ta'limotlari insonning ma'naviy-axloqiy yetukligini rivojlantirishda muhim metodologik asos sifatida namoyon bo'lib, ularning ijtimoiy-falsafiy qarashlari zamonaviy pedagogik jarayon bilan uzviy bog'liqdir. Ushbu ta'limotlar nafaqat

tarixiy ahamiyatga ega bo'lmay, balki zamonaviy ta'lim jarayonida ham dolzarb muammo sifatida ko'rib chiqilmoqda. Zero, jamiyat taraqqiyotining uzluksizligi, barqarorligi va adolatli boshqaruv tizimining shakllanishi axloqiy qadriyatlar bilan bevosita bog'liq bo'lib, ushbu tamoyillarni anglash va amaliyotga joriy etishda Sharq mutafakkirlarining merosi muhim ahamiyat kasb etadi.

Sharq mutafakkirlarining ta'lim va tarbiya haqidagi ijtimoiy-falsafiy qarashlari pedagogik psixologiya nuqtayi nazaridan chuqur tahlil qilinib, insonning intellektual va axloqiy yetukligi, ma'naviy kamoloti hamda boshqaruv tamoyillari bilan bog'liq fikrlar pedagogik jarayonni takomillashtirishga xizmat qiladi. Sharq mutafakkirlarining ilmiy merosi zamonaviy ta'lim tizimi bilan integratsiyalashuvini ta'minlash orqali bo'lajak o'qituvchilarning ma'naviy-axloqiy fazilatlarini rivojlantirishga erishish mumkin. Bu jarayonda aksiologik yondashuv hamda kognitiv tahlil asosida mutafakkirlarning falsafiy merosidan foydalanish imkoniyatlarini o'rganish dolzarb ilmiy masala hisoblanadi.

Sharq mutafakkirlarining falsafiy qarashlarini ta'lim jarayoniga integratsiyalash bo'yicha quyidagi metodologik asoslar muhim ahamiyatga ega bo'lib, kognitiv yondashuv - ta'lim jarayonida bilish, anglash va tushunish jarayonlarini chuqur o'rganish orqali o'qituvchilarning ma'naviy-axloqiy qarashlarini shakllantirishga ilmiy asos yaratadi. Aksiologik yondashuv - talabaning ma'naviy qadriyatlarni anglashini chuqurlashtirish, ularni ta'lim jarayoniga integratsiya qilish, axloqiy me'yorlarni ongli ravishda qo'llash va kasbiy faoliyatida ma'naviyatga asoslangan qarorlar qabul qilish kompetensiyasini rivojlantirish orqali uning ilmiy-nazariy tayyorgarligini mustahkamlash hamda jamiyatda axloqiy yetuk shaxs sifatida shakllanishiga zamin yaratadi. Integrativ yondashuv – turli falsafiy, pedagogik va psixologik ta'limotlarni o'zaro uyg'unlashtirish orqali bo'lajak o'qituvchilarning ma'naviy-axloqiy qiyofasini rivojlantirishga qaratilgan. Bu yondashuv pedagogik jarayonda Sharq mutafakkirlarining ilmiy merosini zamonaviy ta'lim usullari bilan uyg'unlashtirish imkonini beradi. Natijada, o'qituvchilarning kasbiy va axloqiy jihatdan yetuklik darajasi oshadi. Shu bilan birga, ular ta'lim-tarbiya jarayonida o'z pedagogik faoliyatlarini ma'naviy qadriyatlar bilan boyitish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Bu esa, ta'lim jarayonining samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Aksil-mazmunli yondashuv – qarama-qarshi fikrlash va tafovutli nazariyalarni tahlil qilish orqali talabalarning axloqiy tafakkurini rivojlantirishga yo'naltirilgan metodologik asos hisoblanadi. Bu yondashuv orqali talabalarda kreativ fikrlash ko'nikmalari rivojlanib, axloqiy muammolarga tanqidiy yondashish malakasi ortadi. Shuningdek, ular turli g'oyalarni solishtirish va mantiqiy asoslangan xulosalar chiqarish qobiliyatiga ega bo'ladi. Bu esa nazariy bilimlarni mustahkamlash, ulardan amaliy faoliyatda samarali foydalanish imkonini beradi.

Sharq mutafakkirlarining axloqiy ta'limotlari ta'lim jarayonining nazariy va amaliy asoslarini boyitishda muhim rol o'ynaydi. Ushbu ta'limotlarda insonning ma'naviy yetukligi va uning jamiyat rivojidagi o'rni chuqur talqin etilgan bo'lib, ularning asosiy maqsadi – insonning komillikka erishishi va yetuk shaxs bo'lib rivojlanishidir. Bu jarayonda axloqiy qadriyatlar, adolat, ezgulik va ilm-ma'rifat

muhim o‘rin tutadi. Mutafakkirlar tomonidan ilgari surilgan g‘oyalar zamonaviy pedagogik tamoyillar bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, ta‘lim-tarbiya jarayonida shaxsning ma‘naviy kamolotini ta‘minlashga xizmat qiladi. Shu boisdan, Sharq mutafakkirlarining axloqiy merosi ta‘lim jarayoniga integratsiyalash orqali o‘quvchilarda axloqiy tafakkur va fazilatlarni rivojlantirish mumkin.

Sharq mutafakkirlari qadimdan insonning kamolotga yetishi, uning ma‘naviy-axloqiy jihatdan yetuk shaxs bo‘lishi hamda jamiyat taraqqiyotida ta‘lim va tarbiyaning o‘rni haqida batafsil fikr yuritgan. Ushbu qarashlar pedagogik muammo sifatida doimo e‘tiborda bo‘lib, ta‘lim-tarbiya jarayonining nazariy va amaliy jihatlariga ta‘sir ko‘rsatib kelgan.

Mutafakkirlarimizning ijtimoiy-falsafiy qarashlarni tahlil qilishida qadimgi sivilizatsiyalar — Misr, Vavilon, Hindiston va Xitoy madaniyatlarining ta‘siri muhim ahamiyat kasb etgan. Xususan, qadimgi Misrda jamiyat va davlat boshqaruvi, odillik hamda adolat tushunchalarini shakllantirishga alohida e‘tibor qaratilgan. Vavilondagi Hammurapi qonunlari esa huquqiy tizimning ilk namunalaridan biri sifatida adolatlilik boshqaruv va ijtimoiy munosabatlarning aniq qoidalar asosida belgilanishiga asos yaratgan. Ushbu sivilizatsiyalar ijtimoiy hayot va boshqaruvga oid dastlabki nazariy fikrlar rivojiga hissa qo‘shish bilan birga, Sharq falsafasining keyingi rivojlanishiga ham sezilarli ta‘sir ko‘rsatgan.

Qadimgi Hindiston falsafasi Upanishadlar va Vedalar asosida shakllanib, insonning ma‘naviy kamoloti va axloqiy qadriyatlariga alohida urg‘u bergan. Induizm va buddizm ta‘limotlari insonning ichki dunyosini rivojlantirish, ma‘naviy yetuklikka erishish va axloqiy poklikni ta‘minlashga yo‘naltirilgan. Hind falsafasida jamiyatning asosiy vazifasi insonning ma‘naviy tarbiyasini rivojlantirish orqali ijtimoiy barqarorlik va farovonlikni ta‘minlashdan iborat ekani ta‘kidlangan. Ushbu g‘oyalar keyinchalik Sharq mutafakkirlarining ijtimoiy va axloqiy qarashlariga ta‘sir ko‘rsatgan.

Sharq mutafakkirlarining falsafiy merosi nafaqat mahalliy, balki xorijiy olimlar tomonidan ham keng o‘rganilgan. Jumladan, nemis faylasufi H. Xommel, amerikalik tadqiqotchi Charlz Henri, turk olimi Mustafo Aksoy, yaponiyalik tadqiqotchi Takeshi Suzuki kabi olimlarning Sharq mutafakkirlari haqidagi ilmiy qarashlari tahlil qilingan. Ularning tadqiqotlari Sharq va G‘arb falsafasi o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni o‘rganish, falsafiy tafakkur taraqqiyotining xususiyatlarini anglashda muhim nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Sharq sivilizatsiyasining shakllanishida yana bir muhim omil Xitoy falsafasi bo‘lib, unda Konfutsiy va Lao-Szi kabi mutafakkirlar ijtimoiy tartib, axloq va insonning ma‘naviy rivojlanishi masalalarini ilgari surgan. Konfutsiy o‘zining ijtimoiy-axloqiy ta‘limotida jamiyatda har bir shaxs o‘z o‘rnini bilishi, katta-kichikka hurmat va mas‘uliyat bilan yondashishi lozimligini ta‘kidlagan. Ushbu qarashlar jamiyatda adolat, tinchlik va ijtimoiy hamjihatlikni ta‘minlashda muhim omil sifatida baholangan. Shu tariqa, qadimgi sivilizatsiyalar ta‘limotlari Sharq mutafakkirlarining ijtimoiy-falsafiy qarashlari uchun nazariy asos bo‘lib xizmat qilgan.

Fors madaniyati Sharq falsafasining muhim omillardan biri bo'lib, ayniqsa Zardushtiylik ta'limoti insonning axloqiy javobgarligi va ma'naviy kamolotini markaziy tushuncha sifatida ilgari suradi. Bu ta'limotda yaxshilik va yomonlik o'rtasidagi tanlov inson ma'naviy yuksalishining asosiy mezon sifatida talqin qilinadi. Zardushtiylikda jamiyatning axloqiy poydevori shaxsning axloqiy fazilatlarini bilan bevosita bog'liqligi e'tirof etilgan bo'lib, bu yondashuv keyingi Sharq falsafasining shakllanishiga ta'sir ko'rsatgan.

Sharq mutafakkirlarining ijtimoiy-falsafiy qarashlari taraqqiyotida Islom sivilizatsiyasi hal qiluvchi o'rin tutadi. Islom ta'limotida insonning ma'naviy kamoloti, ijtimoiy mas'uliyati va axloqiy yetukligi muhim o'rin egallaydi. Qur'oni Karimda adolat, haqiqatga intilish, o'zaro hurmat va ilm-ma'rifatga bo'lgan ehtiyoj keng yoritilib, bu qadriyatlar Islom falsafasining asosini tashkil etadi.

Islom dunyosining yirik mutafakkirlari Abu Nasr Forobiy, Ibn Sino, Ibn Rushd va Abu Homid G'azzoliy kabi olimlar nafaqat diniy, balki dunyoviy ilm va falsafa sohalarida ham ulkan ishlarni amalga oshirganlar. Ular jamiyatning ma'naviy tuzilishi va insonning axloqiy fazilatlarini haqidagi qarashlarini din va falsafa bilan uyg'unlashtirgan holda tavsiflagan. Ushbu mutafakkirlarning ilmiy va falsafiy merosi nafaqat Sharq, balki jahon madaniyati rivojiga ham katta ta'sir ko'rsatgan.

O'zbekistonda ilm-fan va madaniyat sohalarida faoliyat yuritgan olimlar Sharq mutafakkirlarining boy ilmiy merosini chuqur tahlil etib, ularning jamiyat taraqqiyotiga qo'shgan hissasini keng yoritganlar. Ushbu yo'nalishda N. Mallayev, V. Abdullayev, M. Xayrullayev, Y. Saidjonov, B. To'xlijev, M. Farmonova, H. Homidov, J. Tulenov, Y. Shermuhamedov, X. Boboyev, S. Hasanov, I. Suvonqulov, A. Nurov kabi yetuk tadqiqotchilarning ilmiy izlanishlari alohida ahamiyat kasb etadi. Xususan, A. Nurov o'z tadqiqotlarida Forobiyning ijtimoiy-falsafiy qarashlarini zamonaviy falsafiy yondashuvlar bilan uyg'un holda tahlil qilgan. Olimning fikricha, Forobiy tomonidan ilgari surilgan "Fozil odamlar shahri" konsepsiyasi jamiyatda adolat va ma'rifatning ustuvorligini ta'minlash uchun muhim nazariy asos sifatida qaralishi lozim.

Abu Nasr Forobiyning ta'lim va tarbiya haqidagi qarashlari insonning axloqiy yetuklikka erishishida ilm va aqlning hal qiluvchi omil ekanligini asoslaydi. U fozil shaxs konsepsiyasini ilgari surib, adolat, donishmandlik, saxovat va halollikni axloqiy yetuklik mezonlari sifatida belgilaydi. Forobiyning ta'lim jarayoni haqidagi ta'limoti bilim berish bilan birga axloqiy tarbiyani shakllantirishga qaratilgan bo'lib, bu pedagogikaning nazariy asoslarini boyitadi. Uning g'oyalari zamonaviy pedagogik metodlar bilan uyg'unlashib, ta'lim-tarbiyaning dolzarb tamoyillari sifatida ahamiyat kasb etmoqda.

Abu Ali ibn Sino inson kamoloti va axloqiy tarbiya o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni asoslab, ta'lim jarayonining bosqichma-bosqich rivojlanishini ilmiy va amaliy jihatdan yoritgan. U ta'limda aql va tafakkurni shakllantirish, axloqiy me'yorlarni mustahkamlash hamda jismoniy va ma'naviy-ruhiy tarbiyani uyg'un olib borish zarurligini ta'kidlagan. Ibn Sino pedagogik jarayonda inson ruhiy holati va psixologik rivojlanishining ahamiyatini ko'rsatib, ta'lim-tarbiya tizimining

mukammal shakllanishi uchun nazariy asos yaratgan. Uning pedagogik qarashlari bugungi innovatsion ta'lim tamoyillari bilan mushtarak bo'lib, shaxs kamolotiga yo'naltirilgan tizimli yondashuvni shakllantirishga zamin yaratadi.

Abu Homid G'azzoliy axloqiy yetuklik, ma'naviyat va ta'limning jamiyat rivojidadagi o'rnini nazariy jihatdan asoslab, inson komilligi va axloqiy barkamollikka erishish jarayonini batafsil yoritgan. U ta'limning faqat bilim berish vositasi emas, balki shaxs axloqini rivojlantirish omili ekanligini ta'kidlagan hamda uni nafsni poklash va fazilatlarni rivojlantirish bilan uyg'un holda olib borish zarurligini ilgari surgan. Abu Homid G'azzoliyning g'oyalari zamonaviy pedagogika va psixologiyada ham o'z dolzarbligini saqlab qolgan bo'lib, uning axloqiy tarbiya haqidagi qarashlari shaxsiy kamolotni rivojlantirishga yo'naltirilgan ta'lim konsepsiyalari bilan uzviy bog'liqdir.

Jaloliddin Rumi, Yusuf Xos Hojib va Ahmad Yassaviy ma'naviy-axloqiy qadriyatlarni inson ruhiyatining ajralmas qismi sifatida talqin qilib, ularni shaxs kamoloti va jamiyat barqarorligining asosiy omili deb hisoblagan. Ularning ta'limotlarida axloqiy poklik, adolat, mehr-muruvvat va komillikka intilish asosiy tamoyillar sifatida ilgari surilgan. Ushbu mutafakkirlarning g'oyalari zamonaviy ta'lim jarayonida shaxs tarbiyasini rivojlantirish va yosh avlodni ma'naviy yetuklikka yo'naltirishda muhim metodologik asos bo'lib xizmat qilmoqda.

Hozirgi zamon ta'lim muassasalari yosh avlodning axloqiy tarbiyasi va ma'naviy yuksalishini ta'minlashda markaziy o'rin tutadi. Shu nuqtayi nazardan, Sharq mutafakkirlarining pedagogik g'oyalari bugungi ta'lim jarayonida ham dolzarbligini saqlab qolmoqda. Tadqiqot natijalariga ko'ra, ta'lim muassasalarida yoshlarning ma'naviy rivojlanishini ta'minlash uchun axloqiy qadriyatlarga asoslangan o'quv dasturlarini ishlab chiqish va amaliyotga tatbiq etish zarur. Mazkur yondashuv yoshlarning nafaqat nazariy bilim olishini, balki ularning axloqiy-etik jihatdan kamol topishini ham ta'minlaydi. Tadqiqotda Sharq mutafakkirlarining ijtimoiy-falsafiy qarashlaridan bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlash jarayonida g'oyaviy asos sifatida foydalanishning ustuvor yo'nalishlari aniqlangan.

Sharq mutafakkirlarining g'oyalari asosida o'qituvchi shaxsining ma'naviy yetukligini rivojlantirish, ularning kasbiy faoliyatida axloqiy tamoyillarga asoslangan yondashuvni tatbiq etishdan iborat.

Pedagogik jarayonda ma'naviy-axloqiy qadriyatlarning ustuvorligini oshirish – muhim metodik yondashuvlardan biri bo'lib, bu jarayon talabalarda axloqiy tafakkurni oshirish, ularning ma'naviy-axloqiy yetukligini oshirish hamda ularni jamiyatda faol, mas'uliyatli shaxs sifatida tarbiyalashga zamin yaratadi.

Innovatsion yondashuvlarni qo'llash – ta'lim jarayonida shaxsiy va kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirishga xizmat qiladi. Bu yondashuv bilimlarning chuqur o'zlashtirilishini ta'minlash, ta'lim mazmunining dolzarbligini oshirish hamda talabalarining mustaqil va tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishga imkon yaratadi

Shaxsiy va kasbiy kamolotga erishish, avvalo, ta'lim subyektlarining axloqiy-ma'naviy qadriyatlarga tayangan holda o'z-o'zini rivojlantirish salohiyatini

kengaytirish, ularda ijodiy tafakkur va mustaqil qaror qabul qilish kompetensiyalarini shakllantirish orqali jamiyatdagi ijtimoiy mas'uliyatni yuksaltirish va kasbiy faoliyatda innovatsion yondashuvlardan samarali foydalanishga tayyorlashni nazarda tutadi.

Ta'lim-tarbiyaviy jarayonining tizimli takomillashtirilishi – Sharq mutafakkirlarining ijtimoiy-falsafiy qarashlarini zamonaviy pedagogik metodologiya bilan uyg'unlashtirish orqali ta'lim-tarbiyaning maqsad, mazmun va uslubiyatini yanada rivojlantirish hamda ta'lim jarayonining samaradorligini oshirish, talabalarning shaxsiy va ijtimoiy rivojlanishiga ko'maklashuvchi innovatsion pedagogik texnologiyalarni joriy etish imkoniyatini yaratadi.

Sharq mutafakkirlarining ijtimoiy-falsafiy qarashlariga tayanib, kelajak o'qituvchilarini tayyorlash jarayonida beshta ustuvor yo'nalish aniqlangan: *axloqiy-ma'naviy yuksalish, jamiyatda ma'naviy qadriyatlarni mustahkamlash, ta'lim-tarbiyaviy jarayonda qadriyat mavzularini keng joriy etish, pedagogik faoliyatda mas'uliyat va adolat tamoyillarini muvofiqlashtirish hamda inson huquqlari va qadriyatlarga hurmatni ta'minlash*. Har bir yo'nalish nazariy asos, pedagogik ahamiyat va amaliy qo'llash imkoniyatlari mezonlari bo'yicha chuqur tahlil etilgan. Sharq mutafakkirlarining nazariy nuqtayi nazaridan axloqiy-ma'naviy yuksalish individual shaxsning ichki dunyosi, mustaqil tafakkuri va ruhiy yetukligini rivojlantiruvchi asosiy omil sifatida tan olingan. Jamiyatda ma'naviy qadriyatlarni mustahkamlash esa milliy va umuminsoniy ma'naviy merosni asrab-avaylab, uni kelajak avlodga yetkazishning muhim omili sifatida baholanadi. Qadriyat mavzularini dars jarayoniga integratsiya qilish interfaol mashg'ulotlar, bahs-munozaralar, ijodiy loyihalar orqali talabalarda madaniy-axloqiy kompetensiyalarni o'zlashtirishga xizmat qiladi. Pedagogik faoliyatda mas'uliyat va adolat tamoyillari o'qituvchining kasbiy etikasi hamda qaror qabul qilish jarayonining muhim prinsiplarini tashkil etadi; inson huquqlari va qadriyatlarga hurmat esa demokratik madaniyatni shakllantirish, individual erkinlikni kengaytirish va huquqiy ongini rivojlantirish uchun mustahkam poydevor yaratadi.

Amaliy nuqtai nazardan, mazkur yo'nalishlarning ta'lim-tarbiyaviy jarayonda tatbiqi turli metod va texnologiyalar yordamida amalga oshiriladi. Jumladan, darslarda interfaol munozaralar, jamoaviy loyihalar, pedagogik-etika bo'yicha trening va seminarlar, maxsus qiymat-yo'naltirilgan kurslar tashkil etilib, talabalarda mas'uliyat, adolat va inson huquqlari madaniyatini amalda qo'llash ko'nikmalari rivojlantiriladi. Shu bilan birga, ta'lim-tarbiyaviy jarayonning tizimli takomillashtirilishi Sharq falsafiy merosini zamonaviy pedagogik metodologiya bilan uyg'unlashtirish yo'li bilan ta'lim mazmuni va uslubiyatiga yangi innovatsion elementlar kiritish imkonini beradi.

Ushbu yondashuvlarning nazariy-metodologik asoslari va amaliy mexanizmlari dissertatsiyada batafsil o'rganilib, ularning ta'lim tizimiga integratsiyasi bo'yicha aniq tavsiyalar ishlab chiqilgan. Natijada, o'qituvchilarni tayyorlashda Sharq mutafakkirlarining ijtimoiy-falsafiy merosi samarali qo'llanilib, talabalarning shaxsiy va ijtimoiy rivojlanishiga ko'maklashuvchi pedagogik texnologiyalarni joriy etish imkoniyati yuzaga keladi. Mualliflik

ta'rifiga ko'ra, Sharq mutafakkirlarining ijtimoiy-falsafiy qarashlari va axloqiy-ta'limiy merosi zamonaviy pedagogik jarayonning nazariy-metodologik asoslarini boyitib, shaxsning intellektual, axloqiy va kasbiy kamolotga erishishida muhim omil sifatida namoyon bo'ladi, chunki ularning ta'lim-tarbiyaga oid g'oyalari insonning ma'naviy yetukligi, mustaqil tafakkuri va ijtimoiy mas'uliyatini shakllantirish bilan uzviy bog'liqdir.


Shunday qilib, Sharq mutafakkirlarining ma'naviy-axloqiy qarashlarini ta'lim jarayoniga integratsiyalash pedagogik jarayonning ilmiy asoslarini mustahkamlash, ta'lim samaradorligini oshirish va bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Shu sababdan, dissertatsiyada Sharq mutafakkirlarining falsafiy merosini zamonaviy ta'lim tizimiga integratsiyalashning ilmiy asoslari har tomonlama tahlil qilinadi va uning pedagogik jarayondagi ahamiyati chuqur yoritiladi.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi **“Sharq mutafakkirlari ta'lim va tarbiya sohasidagi qarashlarining pedagogik tavsifi”** deb nomlanadi. Mazkur bobda Sharq mutafakkirlarining ta'lim-tarbiyaga oid ijtimoiy-falsafiy qarashlari tahlil qilinib, ularning bo'lajak o'qituvchilar ma'naviy-axloqiy fazilatlarini rivojlantirishdagi o'rni aniqlanadi. Shuningdek, Sharq va G'arb pedagogikasining qiyosiy tahlili berilib, zamonaviy ta'lim jarayonida foydalanish istiqbollari yoritiladi.

Sharq mutafakkirlarining ijtimoiy-falsafiy qarashlari asosida bo'lajak o'qituvchilarning ma'naviy-axloqiy fazilatlarini rivojlantirish va pedagogik jarayonga integratsiya qilish orqali ularning kasbiy mas'uliyatini oshirish, axloqiy yetuklikka erishish hamda jamiyat taraqqiyotiga hissa qo'shadigan fazilatli shaxslarni tayyorlash maqsadi qo'yilgan. O'qituvchilarning ma'naviy-axloqiy fazilatlarini rivojlantirishga qaratilgan yondashuv axloqiy-ma'naviy g'oyalarni zamonaviy pedagogik nazariyalar bilan uyg'unlashtirish orqali kasbiy mas'uliyat, axloqiy yetuklik va ijtimoiy faollikni yuksaltirishni nazarda tutadi. Ayniqsa, tarix ta'limida zamonaviy o'qituvchi shaxsini shakllantirish globallashtirish jarayonlari, ijtimoiy-ma'naviy o'zgarishlar va ta'lim tizimida vujudga kelayotgan yangi ehtiyojlar bilan chambarchas bog'liq bo'lib, mazkur yondashuv konseptual asosga ega dolzarb masala sifatida namoyon bo'lmoqda.

Zamonaviy tarix o'qituvchisi modelini ishlab chiqish ushbu ehtiyojlarni qondirishga qaratilgan bo'lib, u nafaqat bilim beruvchi, balki axloqiy yetakchi, tarbiyachi va ijtimoiy jihatdan faol shaxsni tarbiyalovchi pedagog sifatida o'qituvchining ko'p qirrali funksiyalarini o'z ichiga oladi. Bu esa pedagog shaxsining ta'lim jarayonidagi rolini yangi bosqichga olib chiqadi. Ma'naviy-axloqiy fazilatlarni rivojlantirish esa o'qituvchilar shaxsiy va ijtimoiy kamolotida muhim tarkibiy qism hisoblanadi. Ushbu jarayonni samarali tashkil etish uchun ta'lim amaliyotida shaxsiy namuna, milliy va umuminsoniy qadriyatlar asosida tarbiya, shuningdek, axloqiy dilemmalarni tahlil qilish kabi metodik yondashuvlardan foydalaniladi. Bunday yondashuvlar zamonaviy ta'lim jarayoni talablari va shaxsga yo'naltirilgan pedagogik paradigmalarga to'laqonli mos keladi. Shu asosda tarix ta'limida zamonaviy o'qituvchi shaxsini tarbiyalashga oid

ilmiy asoslar tahlil qilinib, uni amalga oshirishga xizmat qiluvchi model taklif etilgan (1-rasmga qarang). Ushbu model o'qituvchi shaxsining ma'naviy-axloqiy qiyofasini zamonaviy ta'lim ehtiyojlariga mos holda rivojlantirish imkonini beradi.



1-rasm. Tarix ta'limida zamonaviy o'qituvchi konsepsiyasi modeli

Tarix ta'limida zamonaviy o'qituvchi shaxsini tarbiyalash modeli o'qituvchining ma'naviy-axloqiy qiyofasini zamonaviy ta'lim talablariga mos tarzda rivojlantirishga yo'naltirilgan. Modelning asosiy maqsadi – kasbiy va axloqiy jihatdan yetuk, ijtimoiy faollikka ega kreativ fikrlovchi pedagogni tarbiyalashdan iborat. Vazifalar sifatida kasbiy etika va qadriyatlar asosida tarbiya, tarixiy tafakkur va fuqarolik pozitsiyasini oshirish ko'zda tutilgan. Mazkur jarayon insonparvarlik, shaxsga yo'naltirilganlik va integratsiyalashgan yondashuv kabi tamoyillar asosida olib boriladi. Shaxsiy namuna, tarixiy shaxslar faoliyati, muammoli vaziyatlar tahlili, axloqiy debat va interaktiv usullar muhim o'rin tutadi. O'qituvchiga qo'yiladigan kompetensiyalar – axloqiy madaniyat, kommunikativlik, tarixiy tafakkur va refleksiyaning o'z ichiga oladi. Model yakunida barqaror axloqiy pozitsiya, kasbiy etikaga rioya, o'zini anglash va ijtimoiy faollik kabi sifatlar ta'minlanadi.

Konsepsiyaning ilmiy asosini Forobiy, Ibn Sino, Navoiy kabi mutafakkirlarning qarashlari tashkil etadi. Bu yondashuv o'qituvchini barkamol, mas'uliyatli va fazilatli shaxs sifatida tayyorlashga xizmat qiladi. Quyida konsepsiyaning asosiy tarkibiy qismlari keltirilgan (1-jadvalga qarang).

1-jadval

Bo'lajak o'qituvchilarning ma'naviy-axloqiy fazilatlarini rivojlantirish va pedagogik jarayonga integratsiya qilishning tarkibiy qismlari

Sharq donishmandlari merosi	Ilmiy tafakkur	Axloqiy yetuklik	Fazilatli jamiyat	Innovatsion yondashuv
Forobiy, Beruniy, Ibn Sino, Navoiy va boshqalarning pedagogik g'oyalari	O'qituvchining ilmiy va falsafiy tafakkurini rivojlantirish	Axloqiy mas'uliyat, adolat va vijdonlilik	O'qituvchilar ma'naviy yetakchilar sifatida	Neyropedagogika, interfaol metodlar, axloqiy neyrofeedback

Konsepsiyaning tarkibiy qismlari	
Komponentlar	Tavsif
Axloqiy tarbiya va ma'naviy yuksalish	O'qituvchilarning shaxsiy fazilatlarini rivojlantirish
Ma'naviy qadriyatlarni mustahkamlash	Sharq falsafasi asosida pedagogik yondashuvlar
O'qituvchi kasbining mas'uliyati	Axloqiy tamoyillarga asoslangan ta'lim
Innovatsion texnologiyalar	Neyropedagogika, interfaol ta'lim va kreativ pedagogika
Fazilatli jamiyatni shakllantirish	O'qituvchilar orqali jamiyatni rivojlantirish

Ushbu konsepsiya o'qituvchilarning ma'naviy-axloqiy kamolotiga yo'naltirilgan bo'lib, pedagogikaning zamonaviy yondashuvlarini Sharq mutafakkirlarining g'oyalari bilan uyg'unlashtirishga qaratilgan.

Beruniyning ta'lim va tarbiya borasidagi qarashlari Sharq falsafasida alohida o'rin egallaydi. U ilm-fanning turli sohalarida yaratgan asarlarida insonning ma'naviy va axloqiy kamolotiga katta e'tibor qaratgan. Beruniyning fikricha, ta'lim insonni jamiyatdagi ijtimoiy faollikka yo'naltirish, axloqiy me'yor va odob qoidalarini o'rgatish vositasi bo'lib, uning ma'naviy-axloqiy shakllanishida muhim omil hisoblanadi. U ta'lim va tarbiyani o'zaro uzviy bog'liq jarayonlar sifatida ko'rib, inson ilm va ma'rifat orqali axloqiy yetuklikka erishishi mumkinligini ta'kidlagan. Uning ta'limoti ilmlarni o'zaro integratsiya qilish, bilish jarayonini mantiqiy va tizimli tashkil etish tamoyillariga asoslangan bo'lib, inson shaxsini har tomonlama rivojlantirishga xizmat qiladi. Beruniy tomonidan yozilgan asarlar hamda uning shug'ullangan fan sohalarini tasnif qilinib, ularda ilgari surilgan ta'lim va tarbiya konsepsiyasi ilmiy tahlil qilingan. Beruniyning pedagogik merosi doirasida uning ta'lim va tarbiya o'rtasidagi dialektik bog'liqlik haqidagi qarashlari, insonning ijtimoiy mas'uliyati va tarbiya jarayonining ahamiyati aniq ilmiy dalillar asosida tahlil qilingan.

Bo'lajak o'qituvchilarda yetakchilik kompetensiyalarini rivojlantirish orqali o'quvchilarga jamoaviy ishlash, hamkorlikda muloqot qilish va jamoa manfaatlarini ustun qo'yish ko'nikmalari singdiriladi. Bu jarayonda rol o'yinlari, muammoli vaziyatlar va guruhli loyihalar kabi metodlar qo'llanilib, ijtimoiy mas'uliyat va fuqarolik faolligini rivojlantirishga xizmat qiladi. Sharq va G'arb pedagogikasi madaniy-falsafiy jihatlari bilan farqlanadi. Sharq modeli ma'naviy-axloqiy tarbiyaga urg'u bersa, G'arb modeli individual yondashuv va tanqidiy fikrlashga asoslanadi. Har ikki kontekstdagi qarashlar shaxsni har tomonlama kamol toptirishga qaratilgan bo'lib, ularning didaktik yondashuvlaridagi farqlar dissertatsiyada qiyosiy tahlil qilinadi va integratsiyalash imkoniyatlari asoslab beriladi (2-jadvalga qarang).

2-jadval

Sharq va G'arb pedagogik tizimlarining o'ziga xos jihatlari qiyosiy tahlili


Aspekt	Sharq pedagogikasi	G'arb pedagogikasi	Integratsiyalashuv yo'nalishi
Ta'lim maqsadi	Komil inson tarbiyasi	Intellektual mustaqillik va kreativ tafakkurni rivojlantirish	Shaxsiy rivojlanish va ijtimoiy mas'uliyatni uyg'unlashtirish

O‘qituvchi roli	Axloqiy yetakchi, ma’naviy namuna	Fasilitator, yo‘naltiruvchi	O‘qituvchi – bilim va ma’naviyat uyg‘unligini ta’minlovchi shaxs
Yondashuv	Ma’naviyat va axloqiy tarbiya ustuvor	Mustaqil fikrlash va ilmiy asoslangan metodlarga tayanadi	Axloqiy tarbiya va tanqidiy tafakkurni uyg‘unlashtirish
Ta’lim metodlari	Ustoz-shogird an’anasi, axloqiy idealga intilish	Tajribaga asoslangan o‘qitish, interfaollik	Interfaol ta’lim va axloqiy neyrofeedback texnologiyalarini qo‘llash
Shaxs va jamiyat	Jamoaviylik, axloqiy birlik muhim	Individuallik va shaxs erkinligi ustuvor	Demokratik qadriyatlar va axloqiy mas’uliyatni uyg‘unlashtirish
Bilim va tarbiya	Bilim – ma’naviy yetuklik va fazilat bilan bog‘liq	Bilim – ilmiy tadqiq va empirik yondashuvga asoslanadi	Bilim va fazilatni uyg‘unlashtirish, innovatsion pedagogik usullarni joriy etish
Ma’naviyat o‘rni	Ma’naviy tarbiya asosiy mezon	Dunyoqarash va tanqidiy fikrlash muhim	Ma’naviyat va huquqiy tarbiya integratsiyasi

Jadval tahlillari Sharq mutafakkirlarining ijtimoiy-falsafiy qarashlari nafaqat tarixiy-madaniy meros, balki zamonaviy pedagogikaning metodologik asosi sifatida ham muhimligini ko‘rsatadi. Inson, tarbiya va ma’naviyat haqidagi g‘oyalari axloqiy va kasbiy jihatdan yetuk pedagoglarni tayyorlashda ishonchli manba bo‘lib xizmat qiladi. Shuningdek, Sharq va G‘arb pedagogik yondashuvlarini uyg‘unlashtirish orqali o‘qituvchining shaxsiy va kasbiy rivojini ta’minlovchi integrativ didaktik tizimni yaratish mumkin. Mualliflik fikriga ko‘ra, ushbu konseptual yondashuv pedagogik jarayonga kasbiy mazmun va ijtimoiy mas’uliyat bilan bir qatorda chuqur axloqiy mazmunni ham singdirib, o‘qituvchi shaxsining har tomonlama yetuklikka erishishini ta’minlaydi. Mazkur model Sharq tafakkurining ma’naviy merosi va G‘arb pedagogikasining innovatsion metodlarini uyg‘unlashtirish orqali bo‘lajak o‘qituvchini fazilatli shaxs sifatida shakllantirishga xizmat qiladi. Natijada ta’lim sifati yuksaladi, jamiyat uchun axloqiy yetakchilar tayyorlanadi hamda mustahkam didaktik poydevor yaratiladi.

Shu nuqtai nazardan kelib chiqib, dissertatsiyaning keyingi qismida aynan ushbu yondashuvning amaliy va metakognitiv jihatlarini ochib berish, pedagogik jarayonda uni tizimli qo‘llash imkoniyatlarini tahlil qilish hamda o‘qituvchi shaxsini tarbiyalashda uning samaradorligini asoslab berish ko‘zda tutiladi.

Dissertatsiyaning uchinchi bobi **“Bo‘lajak tarix o‘qituvchilarining ma’naviy-axloqiy fazilatlarini rivojlantirish tizimi”** deb nomlanadi. Mazkur bobda Sharq mutafakkirlarining ijtimoiy-falsafiy merosi asosida bo‘lajak tarix fani o‘qituvchilari ma’naviy-axloqiy fazilatlarini rivojlantirishga qaratilgan didaktik tizimning tarkibiy qismlari ilmiy-metodik jihatdan asoslab berilgan. Jumladan, o‘qituvchi shaxsining ma’naviy-axloqiy qiyofasi tahlil etilib, zamonaviy tarix o‘qituvchisi konsepsiyasi ishlab chiqilgan, pedagogik modelning metodik asoslari aniqlashtirilgan hamda uni amalga oshirishning samarali vosita va metodlari takomillashtirilgan (2-rasmga qarang).



2-rasm. Bo'lajak tarix fani o'qituvchilarining ma'naviy-axloqiy fazilatlarini rivojlantirishning pedagogik modeli

Zamonaviy globallashtirish jarayonlari va ijtimoiy-ma'naviy muhitda yuz berayotgan o'zgarishlar kontekstida bo'lajak o'qituvchilarning ma'naviy-axloqiy rivojlanishini ta'limning ustuvor yo'nalishi sifatida belgilash ilmiy va amaliy jihatdan dolzarb hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan, ishlab chiqilgan pedagogik model axloqiy fazilatlarni rivojlantirish jarayonini tizimli, izchil va maqsadli tarzda yo'lga qo'yish imkonini beradi. Mazkur modelning asosiy maqsadi – bo'lajak o'qituvchilarda nafaqat kasbiy bilim va ko'nikmalarni, balki ma'naviy yetuklik, axloqiy mas'uliyat va fuqarolik pozitsiyasini qaror toptirishdan iborat.

Tadqiqot natijasida Sharq mutafakkirlarining ijtimoiy-falsafiy qarashlariga tayanilgan holda, bo'lajak tarix fani o'qituvchilarining ma'naviy-axloqiy fazilatlarini rivojlantirishga qaratilgan innovatsion-didaktik model ishlab chiqildi. Ushbu model o'qituvchini zamonaviy ta'lim talablari asosida axloqiy yetakchi sifatida shakllantirishga xizmat qiladi va ta'lim sifati hamda natijadorligini oshirishga qaratilgan ilmiy asoslangan tizimli yondashuvni taklif etadi. Pedagogik modelning samarali faoliyat ko'rsatishi, avvalo, uning har bir komponentining o'zaro uzviy bog'liqlikda ishlab chiqilishiga bog'liqdir.

Dissertatsiyada taklif etilgan model bo'lajak o'qituvchilarning ma'naviy-axloqiy fazilatlarini rivojlantirishga yo'naltirilgan bo'lib, u quyidagi tarkibiy qismlardan iborat: maqsad, mazmun, pedagogik jarayon va natija. Har bir komponent o'zaro mantiqiy uyg'unlikda asoslab berilgan bo'lib, ular umumiy didaktik tizimning ichki muvozanatini ta'minlaydi. Mazkur modelda **“ma'naviy-axloqiy qiyofa”** tushunchasi markaziy o'rin tutadi. Bu tushuncha pedagogik nuqtayi nazardan qaralganda, o'qituvchining shaxsiy namunasi, xulq-atvori, axloqiy tamoyillarga sodiqligi, kasbiy faoliyatdagi mas'uliyat hissi, ichki madaniyati va ma'rifiy dunyoqarashi bilan ifodalanadi. U nafaqat shaxsiy tarbiyaning mahsuli, balki ta'lim jarayonida ustoz, ijtimoiy muhit va madaniy an'analar ta'siri ostida shakllanadigan ko'p qirrali sifatlar majmuasidir. Xususan, tarix fanini o'qitishda o'qituvchining ma'naviy-axloqiy qiyofasi yosh avlodga tarixiy ong, milliy o'zlik, vatanparvarlik va adolatparvarlik kabi fazilatlarni rivojlantirishda hal qiluvchi omil sifatida maydonga chiqadi.

Shu bois, taklif etilgan pedagogik model nafaqat nazariy asosga, balki amaliy ahamiyat va ijtimoiy talabga ham tayanadi. Bu esa uni bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy-yetuklik darajasini oshirishda muhim vosita sifatida e'tirof etishga asos yaratadi. Zamonaviy o'qituvchi endilikda faqat bilim yetkazuvchi emas, balki o'quvchilarning ma'naviy-axloqiy yetukligini ta'minlovchi ko'p qirrali pedagogik shaxs sifatida maydonga chiqadi. Shu nuqtayi nazardan, o'qituvchining fazilatli shaxs sifatidagi qiyofasi uni ta'lim jarayonida fasilitator, mentor va tyutor sifatida faoliyat yuritishiga imkon yaratadi. Aynan shu rollarning tarix o'qituvchisi faoliyatidagi o'rni tahlil qilinib, ularni samarali amalga oshirish uchun zarur bo'lgan ma'naviy-axloqiy fazilatlar asoslab beriladi. Jumladan, vatanparvarlik, odillik, fidoyilik, mas'uliyatlilik, sabr-toqatlilik va insonparvarlik kabi fazilatlar o'quvchilarda milliy o'zlikni anglash, tarixiy tafakkurni rivojlantirish va ijtimoiy ongni rivojlantirishda hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Natijada, ta'lim sifati oshadi, o'quvchilar shaxsiy va ijtimoiy jihatdan kamol topadi hamda jamiyatning

ma'naviy-madaniy taraqqiyotiga hissa qo'shadigan yetuk avlod shakllanishiga zamin yaratiladi. Bo'lajak tarix fani o'qituvchilarining ma'naviy-axloqiy fazilatlarini Sharq mutafakkirlarining ijtimoiy-falsafiy qarashlariga tayangan didaktik tizim ta'lim jarayoniga innovatsion yondashuvlarni tatbiq etish, yuqori axloqiy madaniyatga ega o'qituvchilarni tayyorlash hamda yosh avlodda tarixiy tafakkur va fuqarolik ongini rivojlantirishga qaratilgan bo'lib, u jamiyatning umumiy ma'naviy-ma'rifiy taraqqiyotiga xizmat qiladi. Axloqiy tarbiyani tizimli tashkil etishda samarali pedagogik metodlardan foydalanish orqali talabalarda chuqur va bardavom axloqiy-ma'naviy qadriyatlarni shakllantirish zarur. Quyida ushbu jarayonda qo'llanishi maqsadga muvofiq bo'lgan asosiy metodlarning tahlili keltiriladi.

1. Axloqiy tarbiyada shaxsiy namuna metodi - axloqiy tarbiyada o'qituvchining shaxsiy namunasi ta'sirli vosita hisoblanadi. O'quvchilar ko'pincha atrofidagi insonlar, ayniqsa, o'qituvchilarning xatti-harakati va qadriyatlariga asoslanib, o'z xulosalarini chiqaradi. Shaxsiy namuna axloqiy fazilatlarini singdirishda eng samarali usuldir. Axloqiy fazilatlarining kamolotida eng samarali usul bu shaxsiy namuna hisoblanadi.

2. Qadriyatli yondashuv usuli milliy va umuminsoniy qadriyatlarni uyg'unlashtirish ta'lim jarayonining muhim vazifalaridan biri hisoblanadi. Milliy qadriyatlar yoshlarda vatanparvarlik tuyg'usini shakllantirishga, umuminsoniy qadriyatlar ularni jahon hamjamiyatining mas'ul fuqarolari sifatida rivojlantirishga qaratilgan. Qadriyatli yondashuv asosida ta'lim jarayonini tashkil etish

3. Axloqiy dilemmalar metodi. Axloqiy dilemmalarni tahlil qilish o'quvchilarda tanqidiy fikrlashni, axloqiy qarorlar qabul qilish qobiliyatini rivojlantirish uchun samarali metod hisoblanadi. Tarixiy voqealar, shaxslar yoki ijtimoiy jarayonlar bilan bog'liq dilemmalar muhokamasi o'quvchilarga har bir vaziyatning turli qirralarini tushunish imkonini beradi (3-jadvalga qarang).

3-jadval

Bo'lajak tarix o'qituvchilarida axloqiy dilemmalar metodining qo'llanilishi

Komponent	Mazmun
Nazariy asos	Sharq mutafakkirlarining axloqiy tamoyillari (Farobiy, Ibn Sino, Al-G'azzoliy) asosida shakllangan axloqiy qarashlar.
Ma'naviy-axloqiy rivojlanish	O'quvchilarning axloqiy tanlov qilish, mas'uliyatni his etish va adolatni qadrlash qobiliyatini rivojlantirish.
Dilemma tahlili	Tarixiy voqealar va shaxslar faoliyatiga axloqiy baho berish orqali axloqiy tafakkurni rivojlantirish.
Pedagogik qo'llash	Talabalarni axloqiy muammolarni hal qilishga o'rgatish, bahs-munozaralar va keys-stadi asosida mustaqil qaror qabul qilish kompetensiyasini shakllantirish.
Kutilayotgan natija	Tarix o'qituvchisining axloqiy yetukligi va kasbiy etikaga asoslangan qaror qabul qilish ko'nikmalarining rivojlanishi.

Interaktiv usullar ta'lim jarayonini jonlantirish, talabalarni o'quv jarayoniga faol jalb qilish va ularning axloqiy fazilatlarini, tanqidiy-tahliliy fikrlashi va ijtimoiy

ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Ushbu usullar o'quvchilarni mustaqil va erkin fikrlashga undaydi, ularning turli nuqtayi nazarlarni tahlil qilish va axloqiy yechimlarni qabul qilish qobiliyatini rivojlantiradi. Dissertatsiyada debatlar, keys-stadi va simulyatsiya jarayonlarining ta'limdagi ahamiyati va qo'llanilishi kengroq sharhlanadi.

4. Debatlar metodi. Debatlar – ta'lim jarayonida talabalar o'rtasida fikr almashishni rag'batlantiruvchi va tanqidiy fikrlashni rivojlantiruvchi interaktiv usuldir. Talabalar debatlar orqali o'z nuqtayi nazarlarini asoslaydilar, turli qarashlarni tushunishga o'rganadi va ularni asoslangan holda rad etadilar yoki qo'llab-quvvatlaydi. O'zlarining fikrlarini ilmiy va amaliy jihatdan asoslab, himoya qilish ko'nikmalariga ega bo'ladi.

5. Keys-stadi metodi. Keys-stadi ta'lim jarayonida talabalarni amaliy masalalarni hal qilishga yo'naltiruvchi samarali metod hisoblanadi. U turli voqea yoki muammolarni tahlil qilish va ularga munosabat bildirish asosida tashkil etiladi. Keys-stadi metodining qo'llanilishi va uning samaradorligini oshirishga yordam beradi (4-jadvalga qarang).

4-jadval

Keys-stadi metodi

Asosiy elementlar	Mazmuni
Metod nomi	Keys-stadi: Tarix o'qituvchisining axloqiy tanlovi
Vaziyat	Bo'lajak tarix fani o'qituvchisi Sharq mutafakkirlarining axloqiy tamoyillari haqida dars o'tayotganda, o'quvchilarning sust ishtirok etishi va ushbu g'oyalarning zamonaviy hayotga ta'siriga shubha bilan qarash muammosiga duch keladi
Muammo	O'quvchilarga tarixiy shaxslarning axloqiy qarashlari bugungi jamiyat va shaxsiy rivojlanish uchun muhim ekanligini qanday tushuntirish mumkin? Ta'lim jarayonida kuzatilayotgan muammolar va mavjud muammolarni bartaraf etishda allomalar tavsiyalariga asoslanib ish ko'rish malakasiga ega bo'ladi.
Metod maqsadi	O'quvchilarda axloqiy qarashlarni anglash, baholash va ularning zamonaviy hayot bilan bog'liqligini tushunish ko'nikmalarini rivojlantirish
Tahlil uchun savollar	1. Axloqiy qadriyatlarining bugungi hayotdagi ahamiyatini qanday ochib berish mumkin? 2. Tarixiy shaxslarning axloqiy tamoyillarini zamonaviy holatlar bilan qanday bog'lash mumkin? 3. O'quvchilarning faolligini yanada oshirish uchun qanday interfaol usullar qo'llash lozim? 4. Axloqiy dilemmalar orqali mustaqil fikrlash va bahs yuritish ko'nikmalarini qanday rivojlantirish mumkin?
Amalga oshirish bosqichlari	1. Talabalar kichik guruhlariga bo'linadi. 2. Har bir guruh muammo bo'yicha o'z strategiyasini ishlab chiqadi. 3. Guruhlar taqdimot o'tkazib, tanlagan usullarining samaradorligini asoslab beradi. 4. Guruhlar bir-birining yondashuvlarini baholab, eng samarali usulni aniqlaydi.
Natijalar	1. O'quvchilar tarixiy shaxslarning axloqiy qarashlarining dolzarbligini tushunib yetadi. 2. Mustaqil fikrlash va bahs yuritish ko'nikmalari shakllanadi. 3. Zamonaviy ta'lim jarayonida axloqiy qadriyatlarni integratsiya qilish usullari o'zlashtiriladi.
Baholash mezonlari	1. O'quvchilarning ishtiroki va fikrlash faolligi. 2. Muammoni hal etish bo'yicha taklif etilgan strategiyaning asoslanishi. 3. Tarixiy axloqiy qarashlarni zamonaviy kontekst bilan bog'lash darajasi.

6. Simulyatsiya metodi. Simulyatsiyalar ta'lim jarayonida talabalarni muayyan jarayonlarda ishtirok etgandek his qilish imkonini yaratuvchi interaktiv metod hisoblanadi. Simulyatsiya o'quvchilarga tarixiy jarayonlarni "yashayotgandek" tajriba orttirish imkoniyatini beradi.

Zamonaviy ta'lim jarayonida virtual platformalar, elektron manbalar, videodarslar va multimedia resurslaridan keng foydalanish talabalarning bilishga bo'lgan qiziqishini kuchaytirish bilan birga, ularni axloqiy qarashlarni rivojlantirishga ham yo'naltiradi. Bu texnologiyalar o'quv jarayonini real hayotga yaqinlashtirish, turli mavzularni aniq va ta'sirli ko'rsatish, talabalarning muloqotga kirishish qobiliyatini oshirish imkonini beradi. Dissertatsiyada ushbu vositalarning afzalliklari keng tahlil qilingan.

Dissertatsiyaning to'rtinchi bobi "**Bo'lajak o'qituvchilarning ma'naviy-axloqiy fazilatlarini rivojlantirish: model, tajriba, natija va tahlil**" deb nomlanadi va unda pedagogik tajriba-sinov ishlari mazmuni va uning tashkiliy jihatlari keltirilgan va natijalarining matematik-statistik tahlili amalga oshirilgan.

Pedagogik tajriba-sinov ishlarining asosiy maqsadi sifatida Sharq mutafakkirlarining ijtimoiy-siyosiy qarashlari asosida bo'lajak o'qituvchilarning ma'naviy-axloqiy fazilatlarini rivojlantirish, ularda milliy va umuminsoniy qadriyatlarni uyg'unlashtirishga qaratilgan metodlarning samaradorligini tekshirish jarayoni belgilangan.

Pedagogik tajriba-sinov ishlari maqsad va vazifalarining to'g'ri qo'yilishi tadqiqot gipotezasi va konsepsiyasining asosli va ishonchliligiga bog'liq. Tadqiqot konsepsiyasi Sharq mutafakkirlarining ijtimoiy-falsafiy qarashlarini ta'lim jarayoniga integratsiya qilish orqali bo'lajak o'qituvchilarning ma'naviy-axloqiy fazilatlarini rivojlantirishga qaratilgan. Tadqiqotning ilmiy gipotezasi shundan iboratki, agar ta'lim jarayonida Sharq mutafakkirlarining ijtimoiy-falsafiy qarashlari aksiologik yondashuv, kognitiv tahlil va innovatsion pedagogik texnologiyalar orqali integratsiya qilinsa, bo'lajak o'qituvchilarning ma'naviy-axloqiy fazilatlarini samarali rivojlanadi. Pedagogik tajriba-sinov ishlari dasturining bosqichlari uch bosqichda o'tkazildi (5-jadvalga qarang).

5-jadval

Pedagogik tajriba-sinov ishlari dasturining bosqichlari

Bosqichlar	Mazmun	Faoliyat shakli	Kutilayotgan natijalar
Tayyorgarlik bosqichi	Axloqiy tarbiyaning nazariy asoslari bilan tanishish.	Ma'ruza va muhokama	Talabalar axloqiy tushunchalar asoslari haqida ma'lumotga ega bo'ladi.
Amaliy bosqich	Axloqiy dilemmalar va tarixiy keyslarni tahlil qilish.	Simulyatsiya va debatlar	Axloqiy yechim topish ko'nikmasi shakllanadi.
Monitoring bosqichi	Anketa, test va kuzatuvlar orqali axloqiy rivojlanishni baholash.	Individual va guruhli tahlil	Axloqiy qarashlar rivojlanganlik darajasi aniqlanadi.
Natijalar tahlili	Tajriba jarayonidagi kamchiliklarni tahlil qilish va xulosalar chiqarish.	Ilmiy-tahlil	Axloqiy tarbiya jarayonini takomillashtirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqiladi.

Matematik-statistik tahlil pedagogik tadqiqotlarda ilmiy asoslangan xulosalar chiqarishning muhim metodologik asoslaridan biridir. U pedagogik jarayonlarning samaradorligini aniqlash, ta'lim metodlarining natijadorligini baholash va eksperimental ma'lumotlarning ishonchligini tasdiqlashda qo'llaniladi. Statistik tahlil ta'lim jarayonidagi tendensiyalarni aniqlash, innovatsion texnologiyalarning ta'sirini o'rganish va pedagogik qarorlarni ilmiy asosda qabul qilish imkonini beradi. Mazkur usul orqali eksperimental tadqiqotlarning natijalari obyektiv baholanib, ilmiy-tadqiqiy faoliyatning samaradorligi oshiriladi. Natijada ta'lim sifati va pedagogik innovatsiyalarning amaliy ahamiyati yanada ortadi.

Sharq mutafakkirlarining ijtimoiy-falsafiy qarashlari asosida bo'lajak o'qituvchilarning ma'naviy-axloqiy fazilatlarini rivojlantirishning metodik asoslarini amalga oshirish natijalarini baholash maqsadida tajriba-sinov ishlari olib borildi. Ushbu jarayonda tajriba va nazorat guruhlarining o'rtacha o'zlashtirish ko'rsatkichlari Styudent-Fisherning matematik-statistik metodi yordamida tahlil qilindi. Tadqiqotda jami 471 nafar talaba ishtirok etib, ulardan 234 nafari tajriba guruhi va 237 nafari nazorat guruhini tashkil etdi. Statistik tahlil natijalari ilgari surilgan metodik yondashuvning samaradorligini ilmiy asosda baholash imkonini berdi.

O'tkazilgan tajriba-sinov natijalarining matematik-statistik tahlili tajriba va nazorat guruhlarida talabalar bilimining o'rtacha ko'rsatkichlarini qiyosiy baholash imkonini berdi. Normal taqsimotga ega bo'lish farazi tasdiqlandi va Styudent-Fisher kriteriyalari asosida olingan natijalar ishonchligi tekshirildi. Hisob-kitoblar ta'lim jarayonida qo'llanilgan metodikaning samaradorligini ilmiy asoslashga xizmat qildi. Olingan natijalar asosida bo'lajak tarix fani o'qituvchilarining ma'naviy-axloqiy fazilatlarini rivojlantirishga yo'naltirilgan pedagogik yondashuvlar ilmiy-metodik jihatdan takomillashtirildi. Pedagogik tajriba-sinov bosqichlarida bo'lajak tarix fani o'qituvchilarining ma'naviy-axloqiy fazilatlarini rivojlantirish quyidagi mezonlar asosida baholandi (6-jadvalga qarang).

6-jadval

Bo'lajak tarix fani o'qituvchilarining ma'naviy-axloqiy fazilatlarini rivojlantirish mezonlari

Mezonlar	Tavsifi
Motivatsion mezon	Bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy faoliyatga daxldorlik hissi, axloqiy qadriyatlarga sadoqat darajasi va kasbiy mas'uliyati
Kognitiv mezon	Sharq mutafakkirlarining axloqiy qarashlarini tushunish, tarixiy jarayonlarga axloqiy nuqtayi nazardan baho berish qobiliyati
Faoliyatli mezon	O'quv jarayonida axloqiy tamoyillarni amaliy qo'llash, talabalarga axloqiy tarbiya berish metodlarini joriy etish ko'nikmalari


Bu mezonlarning har biri bo'yicha bo'lajak o'qituvchilarning rivojlanish darajasi **yuqori, o'rta va past** bosqichlarda baholanib, pedagogik jarayon samaradorligini aniqlashga xizmat qiladi. Yuqoridagi jadvallar asosida tajriba va nazorat guruhidagi o'quvchilar o'zlashtirishlari samaradorligini ko'rsatuvchi N_1 gipoteza va unga zid bo'lgan N_0 gipoteza tanlanadi (7-jadvalga qarang).

Tajriba boshida va yakunida respondentlarning samaradorlik darajasi ko'rsatkichlari


Muddati	Guruhlar	Talabalar soni	O'zlashtirish darajalari sonda va foizda		
			yuqori	o'rta	quyi
Tajriba boshida	Tajriba guruhida	234	49 20,9%	82 35%	103 44,1%
	Nazorat guruhida	237	62 26,2%	102 43%	73 30,8%
Tajriba yakunida	Tajriba guruhida	231	66 28,6%	140 60,6%	25 10,8%
	Nazorat guruhida	229	47 20,5%	76 33,2%	106 46,3%

Bu tanlanmalarga mos kelgan diagramma quyidagicha ko'rinishni oladi

(3-4- rasmlarga qarang):



3-rasm. Tajriba boshida



4-rasm. Tajriba yakunida

Olingan natijalarga asoslangan holda matematik statistik tahlil qilinib, tajriba yakunidagi holat uchun topilgan natijalardan o'rtacha kvadratik chetlanish, tanlanma dispersiya, variatsiya ko'rsatkichlari, Studentning tanlanma mezon, Student-Fisher mezon asosida erkinlik darajasi va ishonchli chetlanishlari topildi. Yuqoridagi aniqlangan natijalarga asosan tajriba – sinov ishlarining sifat ko'rsatkichlarini hisoblaymiz:

$$K_{o'sb} = \frac{(\bar{X} - \Delta_t)}{(\bar{Y} - \Delta_n)} = \frac{4,18 - 0,039}{3,74 - 0,066} = \frac{4,141}{3,674} = 1,127 > 1$$

Olingan natijalardan ma'lumki, tajriba guruhidagi o'rtacha o'zlashtirish nazorat guruhidagiga nisbatan 12,7% ga oshganligini anglatadi. Olingan natijalardan o'qitish samaradorligini baholash mezon birdan kattaligi va bilish darajasini baholash mezon noldan kattaligini ko'rish mumkin. Bundan ma'lumki, tajriba guruhidagi o'zlashtirish nazorat guruhidagi o'zlashtirishdan yuqori ekan.

Demak, sharq mutafakkirlarining ijtimoiy-falsafiy qarashlari asosida bo'lajak o'qituvchilarning ma'naviy-axloqiy fazilatlarini rivojlantirishning metodik

asoslarini amalga oshirishda tajriba va nazorat guruhlarida qatnashgan respondentlarning samaradorlik bo'yicha o'tkazilgan tajriba-sinov ishlari muvaffaqiyatli bo'ldi.

XULOSA

“Sharq mutafakkirlarining ijtimoiy-falsafiy qarashlari asosida bo'lajak o'qituvchilarning ma'naviy-axloqiy fazilatlarini rivojlantirishning metodik asoslari (tarix fanlari misolida)” mavzusida olib borilgan tadqiqot natijalari asosida quyidagi xulosalarga kelindi:

1. Bo'lajak o'qituvchilarning ma'naviy-axloqiy fazilatlarini ta'lim jarayonining asosini tashkil etib, axloqiy qarashlar, shaxsiy mas'uliyat va ijtimoiy munosabatlarni shakllantirish orqali yoshlarning shaxs sifatida kamolotiga ko'maklashadi hamda shaxsiy va umuminsoniy qadriyatlarni uyg'unlashtirish evaziga jamiyatda ma'naviy barqarorlikni ta'minlaydi.

2. Forobiy, Ibn Sino, Beruniy kabi Sharq mutafakkirlari ta'lim va tarbiyani inson kamoloti uchun asosiy vosita sifatida ko'rganlar. Ularning ijtimoiy-falsafiy qarashlari yoshlarning ma'naviy rivojlanishiga yo'naltirilgan bo'lib, zamonaviy ta'lim jarayonida ularni qo'llash yoshlarda milliy va umuminsoniy qadriyatlarga nisbatan hurmat hissini oshirishga yordam beradi. Bu g'oyalar jamiyatda ma'rifatni yoyish va kamolotga intilishni kuchaytirishga xizmat qiladi.

3. Bo'lajak o'qituvchilarning ma'naviy-axloqiy rivojlanishiga qaratilgan pedagogik model ta'lim jarayonida tizimli yondashuv yaratishga yordam beradi. Modelning asosiy maqsadi yoshlarning shaxsiy va jamoaviy mas'uliyatini shakllantirish, axloqiy qaror qabul qilish qobiliyatini oshirishdir. Mazkur model amaliyotda joriy qilinganda, interaktiv usullar va axloqiy dilemmalar orqali talabalarning ijtimoiy jarayonlardagi faol ishtirokini kuchaytirishga qaratilgan.

4. Tadqiqot doirasida ishlab chiqilgan pedagogik model va metodlar ta'lim jarayonining sifatini oshirish, talabalarning shaxsiy mas'uliyatini oshirish va ma'naviy rivojlanishni ta'minlashda muhim ahamiyatga ega. Ushbu ishlanmani milliy ta'lim tizimiga joriy etish pedagogik jarayonni yangi bosqichga olib chiqishga yordam beradi. U kelgusida ta'lim jarayonini individuallashtirish va innovatsion metodlarni joriy qilishda tayanch model sifatida xizmat qiladi.

5. Elektron darsliklar, videodarslar, virtual ekskursiyalar va interaktiv platformalar ta'lim jarayonini individuallashtirish va yoshlarning o'qishga qiziqishini oshirish uchun muhim vosita bo'lib xizmat qiladi. Masalan, Google Arts & Culture yoki Khan Academy History kabi platformalar yordamida tarixiy voqealarni jonli tasvirlar orqali o'rganish imkoniyati talabalarning tanqidiy fikrlash qobiliyatini oshiradi. Bu texnologiyalar yoshlarda axloqiy qaror qabul qilish qobiliyatini rivojlantirishda alohida o'rin tutadi.

6. Axloqiy tarbiya jarayonida ustoz-shogird an'anasini qo'llash, shaxsiy namuna usuli orqali talabalarga ta'sir o'tkazish, axloqiy dilemmalarni muhokama qilish va jamoaviy ish shakllarini joriy etish yuqori samaradorlik beradi. Bunda pedagogik jarayonni metodik jihatdan mustahkamlash uchun interaktiv

mashg'ulotlar, simulyatsiyalar va keys-stadi kabi metodlardan keng foydalanish tavsiya etiladi.

7. Elektron darsliklar, virtual platformalar, videodarslar va multimedia resurslar ta'lim jarayonini yangi bosqichga olib chiqadi. Masalan, Google Arts & Culture kabi platformalar tarixiy yodgorliklar haqida virtual ekskursiyalar tashkil etishga imkon beradi. Bu kabi texnologiyalar o'quvchilarning axloqiy qarashlarini boyitish, tanqidiy va tahliliy fikrlashini rivojlantirish va ta'lim jarayonini individuallashtirish uchun katta imkoniyat yaratadi.

8. Milliy va umuminsoniy qadriyatlarni uyg'unlashtirish ta'lim jarayonining muvaffaqiyatini belgilaydi. Sharq mutafakkirlarining ijtimoiy-falsafiy g'oyalari asosida yoshlarga milliy qadriyatlarni o'rgatish bilan birgalikda ularda umumjahon tushunchalariga nisbatan hurmat ortadi. Masalan, Forobiyning axloqiy-etik qarashlari, Beruniyning ma'rifatparvar g'oyalari ta'lim jarayonida faol qo'llanilganida, yoshlarda shaxsiy kamolotga intilish kuchayadi.

9. Tajriba jarayonidagi tahlillar shundan dalolat beradiki, axloqiy tarbiyaga qaratilgan interaktiv va innovatsion metodlar foydalanilgan tajriba guruhida talabalarning ma'naviy-axloqiy rivojlanish ko'rsatkichlari yuqori darajada rivojlandi. Nazorat guruhida esa an'anaviy yondashuvlar qo'llangan holda natijalarning barqaror emasligi qayd etildi. Bu tajriba innovatsion metodlarning ta'lim jarayonidagi ustunligini ko'rsatdi.

10. Pedagogik tajriba-sinov ishlari ta'lim jarayonining samaradorligini tekshirish va modelning amaliyotdagi ahamiyatini baholash imkonini berdi. Bu jarayonda interaktiv metodlar va innovatsion yondashuvlarni qo'llash orqali axloqiy tarbiya samaradorligi o'rganildi. Natijalar ko'rsatdiki, interaktiv metodlardan foydalanilgan tajriba guruhida axloqiy qarashlarning rivojlanish darajasi yuqori bo'lgan. Bu modelning ta'lim tizimida joriy etish uchun ilmiy asos yaratdi.

Tadqiqot natijalari asosida quyidagi taklif va tavsiyalar ishlab chiqildi:

tarix ta'limi jarayonida Sharq mutafakkirlarining ijtimoiy-falsafiy merosini o'quv dasturlariga integratsiya qilish orqali bo'lajak o'qituvchilarning ma'naviy-axloqiy fazilatlarini rivojlantirishga yordam berish lozim;

bo'lajak o'qituvchilarning axloqiy tarbiyasini rivojlantirish uchun ularga interaktiv treninglar, seminarlar, mahorat darslari va metodik qo'llanmalar asosida ta'lim berish tizimini ishlab chiqish kerak;

Sharq mutafakkirlarining tarbiya va ma'naviyatga oid ta'limotlarini ta'lim jarayoniga kiritish, ularning ijtimoiy-falsafiy qarashlari asosida o'quv materiallarini boyitish hamda talabalar orasida ma'naviy muhitni ta'minlash zarur;

axloqiy tarbiya samaradorligini baholash va monitoring qilish uchun maxsus indikatorlar, testlar, so'rovnomalar va pedagogik kuzatuvlar asosida baholash tizimini joriy etish hamda uni muntazam takomillashtirish kerak;

axloqiy tarbiya jarayonini raqamli texnologiyalar, virtual muhitlar, multimedia kontentlar va axloqiy dilemmalarni muhokama qilishga yo'naltirilgan onlayn platformalar bilan boyitish orqali zamonaviy ta'lim imkoniyatlaridan samarali foydalanish zarur.

**РАЗОВЫЙ НАУЧНЫЙ СОВЕТ PhD.03/27.09.2024.Ped.184.01 ПО
ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЁНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ НАМАНГАНСКОМ
ГОСУДАРСТВЕННОМ ПЕДАГОГИЧЕСКОМ ИНСТИТУТЕ**

**ЧИРЧИКСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ ПЕДАГОГИЧЕСКИЙ
УНИВЕРСИТЕТ**

АХМАДЖАНОВ ДОНИЁР БАХТИЁР УГЛИ

**МЕТОДИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ РАЗВИТИЯ ДУХОВНО-
НРАВСТВЕННЫХ КАЧЕСТВ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ НА ОСНОВЕ
СОЦИАЛЬНО-ФИЛОСОФСКИХ ВЗГЛЯДОВ ВОСТОЧНЫХ
МЫСЛИТЕЛЕЙ (НА ПРИМЕРЕ ИСТОРИЧЕСКИХ НАУК)**

**13.00.02 – Теория и методика образования и воспитания
(история)**

АВТОРЕФЕРАТ
диссертации доктора ПЕДАГОГИЧЕСКИХ наук (DSc)

Наманган – 2025

Тема диссертации доктора педагогических наук (DSc) зарегистрирована Высшей аттестационной комиссией при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан за № B2025.1.DSc/Ped1054

Диссертация выполнена в Чирчикском государственном педагогическом университете.

Автореферат диссертации на трех языках (узбекский, русский, английский (резюме)) размещен на веб-странице Научного совета (www.namspi.uz) и на информационно-образовательном портале «ZiyoNet» (www.ziynet.uz)

Научный руководитель:	Мухамедов Гафурджан Исраилович доктор химических наук, профессор
Официальные оппоненты:	Курбанов Жасурбек Акмалжонович Доктор педагогических наук (DSc), доцент
	Ярматов Рахим Бахромович Доктор педагогических наук, профессор
	Ерметов Аваз Абдуллаевич Доктор исторических наук (DSc), профессор
Ведущая организация:	Шахрисабзский государственный педагогический институт

Защита диссертации состоится на заседании Ученого совета PhD.03/27.09.2024.Ped.184.01 при Наманганском государственном педагогическом институте «__» _____ 2025 г. в «_____» часов. (Адрес: 160107, г. Наманган, ул. Уйчи, дом 316. Тел.: (998) 69 211-11-69; факс: (998) 69 211-11-39; e-mail: info@namspi.uz.)

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Наманганского государственного педагогического института (зарегистрирован под номером №____). (Адрес: 160107, г. Наманган, ул. Уйчи, дом 316. Тел.: (998) 69 211-11-69; факс: (998) 69 211-11-39)

Автореферат диссертации разослан «__» _____ 2025 года.
(протокол реестра № __ от _____ 2025 года).

М.Р.Кодирханов
председатель разовый Научного совета по
присуждению ученых степеней, д.х.н. (DSc),
доцент

С.Х.Муталов
ученый секретарь разовый Научного совета по
присуждению ученых степеней, доктора
философии (PhD) по педагогическим наукам

М.А.Аскарва
председатель разовый научного семинара
при Научном совете по присуждению
ученых степеней, д.п.н. (DSc), доцент

ВВЕДЕНИЕ (аннотация докторской диссертации ((DSc))

Актуальность и востребованность темы диссертации. Под воздействием процессов глобализации в мировом масштабе возникновение нравственных проблем и значительное ослабление отношения общества к духовным ценностям требуют коренного пересмотра системы образования. Развитие духовно-нравственного воспитания на основе гармонизации национальных и общечеловеческих ценностей сегодня приобретает актуальное значение не только с теоретической, но и с практической точки зрения. Опыт Японии, Южной Кореи и Сингапура показывает, что внедрение инновационных подходов к формированию нравственного воспитания в образовательный процесс приносит эффективные результаты. В Японии использование национальных этических норм «Оя котоба», а в Южной Корее – использование виртуальных платформ для морального воспитания способствует повышению духовной зрелости молодого поколения. Глубокое изучение этих передовых практик и их адаптация к национальной образовательной системе открывает возможности для обеспечения духовно-нравственного развития учащихся, а также для совершенствования педагогического процесса в соответствии с современными требованиями. Поэтому данное исследование имеет актуальное значение, так как направлено на анализ теоретических основ нравственного воспитания и разработку механизмов эффективного внедрения инновационных технологий в образовательный процесс.

В мире активно проводятся научные исследования, посвящённые роли и значению нравственного воспитания в образовательном процессе. Современные педагогические подходы способствуют расширению возможностей использования цифровых технологий в совершенствовании нравственных ценностей. В Южной Корее выдвигаются принципы обсуждения нравственных дилемм в виртуальной среде и развития навыков принятия моральных решений с помощью симуляций. В Японии же воспитательная система, основанная на национальных ценностях, направлена на формирование у молодежи чувства командного сотрудничества, уважения и ответственности. Программа “Global Citizenship Education”, разработанная при поддержке ЮНЕСКО, направлена на развитие образовательного процесса, основанного на гуманизме, справедливости и общечеловеческих ценностях. В США и странах Европы разрабатываются подходы, интегрирующие нравственное воспитание с инновационными технологиями, а также основанные на усвоении моральных понятий через практическую деятельность. Одной из актуальных задач сегодняшнего дня является повышение духовно-нравственного развития молодежи через гармонизацию национальных и общечеловеческих ценностей в системе образования, а также научное совершенствование педагогического процесса.

В нашей стране особое внимание уделяется развитию духовно-нравственного воспитания молодежи и укреплению у них чувства уважения к национальным и общечеловеческим ценностям. Как подчеркнул Президент

Республики Узбекистан, воспитание молодежи с высоким уровнем духовности, твердой жизненной позицией, широким мировоззрением, преданной своему делу и Родине является основой для качественного повышения системы образования и воспитания на новый уровень⁷. В этом процессе всё более актуальной становится необходимость обогащения нравственного воспитания на основе современных инновационных технологий, опираясь на национальные ценности в системе образования. В Узбекистане учебные программы и современные методы, разработанные на основе национальной идеи и нравственного воспитания, способствуют формированию молодежи как личности, осознающей свою социальную ответственность. При этом, помимо глубокого изучения национальных традиций и принципов народной педагогики, важное значение имеет внедрение передового международного опыта. Поэтому вопросы духовно-нравственного воспитания молодежи рассматриваются как актуальная научная проблема с точки зрения обеспечения социальной стабильности и устойчивого развития общества

В Республике Узбекистан было принято ряд нормативно-правовых актов, направленных на совершенствование системы образования и развитие духовно-нравственного воспитания молодежи. В частности, важное значение в данном направлении имеют Указы Президента Республики Узбекистан № УП-5847 от 8 октября 2019 года «Об утверждении Концепции развития системы высшего образования Республики Узбекистан до 2030 года», № УП-6108 от 6 ноября 2020 года «О мерах по развитию сфер образования и воспитания, и науки в новый период развития Узбекистана» и № УП-60 от 28 января 2022 года «О стратегии развития нового Узбекистана на 2022-2026 годы». В том числе Постановление Президента Республики Узбекистан № ПП-3907 от 14 августа 2018 года «О мерах по поднятию на качественно новый уровень системы духовно-нравственного и физически гармоничного воспитания молодежи, ее обучения и воспитания» и Постановление Кабинета Министров Республики Узбекистан № 1059 от 31 декабря 2019 года «О мерах по реализации и утверждения Концепции непрерывного духовного воспитания» определяют приоритетные направления в этой области. В рамках выполнения задач, предусмотренных данными нормативно-правовыми актами, проводимые исследования способствуют совершенствованию духовно-нравственного воспитания молодежи.

Соответствие исследований приоритетам развития науки и техники республики. Данное исследование выполнено в соответствии с приоритетным направлением развития науки и технологий Республики Узбекистан I. «Формирование системы инновационных идей и пути их реализации по социальному, правовому, экономическому, культурному,

⁷ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori. «Yoshlarni ma'naviy-axloqiy va jismoniy barkamol etib tarbiyalash, ularga ta'lim-tarbiya berish tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish chora-tadbirlari to'g'risida». Toshkent, 2018 yil 14 avgust, PQ-3907-son //onun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 15.08.2018 y., 07/18/3907/1706-son

духовно-просветительскому развитию информационного общества и демократического государства».

Обзор зарубежных научных исследований по теме диссертации.⁸ Формирование и развитие духовно-нравственных качеств будущих педагогов является одним из важных направлений, широко исследуемых в рамках современной науки. В частности, ученые Сеульского национального университета (Южная Корея) уделяют особое внимание вопросам применения инновационных педагогических методов и цифровых технологий при формировании нравственного воспитания, исследуя влияние этих подходов на эффективность образования.

В исследованиях, проведенных высшим учебным заведением Великобритании — Университетом Ноттингема, проанализированы вопросы развития у будущих учителей аналитического, критического мышления и компетенций по принятию самостоятельных нравственных решений через изучение моральных дилемм. В то же время ученые Университета Страсбурга (Франция) и Университета Уппсалы (Швеция) проводят исследования, направленные на разработку эффективных педагогических моделей и методических основ для интеграции национальных и универсальных ценностей в образовательный процесс.

